2) утверждение статуса указанных конструкций как зависимого (или элементарного, по В.Г.Адмони) предложения, но все же предложения, основывается на признании главенствующей роли в процессе образования предложения как структуры, принципиально отличной от словосочетания, не за формой сказуемого, а за наличием в конструкции собственного предикативного отношения;

3) та или иная форма сказуемого зависимой конструкции (финитная или, напротив, инфинитная форма - деепричастие, причастие или имя действия с аффиксом падежа) служит показателем степени его формального приспособления (деформации, трансформации) для роли связующего элемента (узла связи) в подчиненной конструкции.

4) относительно формы подлежащего зависимой конструкции мнения нельзя считать окончательно установившимися: первоначально единодушно полагали, что постановка субъекта в родительном падеже превращает конструкцию из предикативной в определительную.

### **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Абдуллаев К.М. Взаимоотношение составных частей сложного предложения в азербайджанском языке //Советская тюркология", 1983, № 6.
2. Абдурахмонов Г. Қўшма гап синтаксиси асослари. – Тошкент, 1958.
3. Абдурахманов Г. А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского языка. – Ташкент, 1960.
4. Адмони В. Г. Теоретическая грамматика немецкого языка. Строй современного немецкого языка: учеб. пособие для пед. ин-тов по спец. "Иностр. яз." / В. Г. Адмони. – 3-е изд., дораб. – М.: Просвещение, 1982.
5. Баскаков Н.А. Простое предложение в каракалпакском языке. В кн.: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Синтаксис. – М., 1961.
6. Гаджиева Н.З., Бирюкович Р.М. Реликты древнетюркского синтаксиса в современных тюркских языках. (На материале чулымско-тюркского языка) // Советская тюркология, 1983, № 2.
7. Грунина Э.А. Некоторые вопросы синтаксиса сложноподчиненного предложения в современном литературном узбекском языке. – В кн.: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Ч. III. Синтаксис. – М., 1961.
8. Deny J. Grammaire de la Langue Turque (Dialecte Osmanli). – Paris, 1920.
9. Дмитриев Н.К. Грамматика башкирского языка. – М., 1948.
10. Дыренкова Н.П. Грамматика шорского языка. – М.-Л., 1941.
11. Закиев М.З. Сложное предложение. - В кн.: Современный татарский литературный язык. Синтаксис. - М., 1971.
12. Закиев М.З. Актуальные проблемы сложных предложений в тюркских языках. – Советская тюркология, 1983, № 3.
13. Иванов С.Н. Очерки по синтаксису узбекского языка. – Л., 1959.
14. Кононов А.Н. Грамматика турецкого литературного языка. – М.-Л., 1956.
15. Кононов А.Н. Грамматика турецкого языка. – М.-Л., 2019. – 320 с.
16. Кононов А.Н. Грамматика языка тюркских рунических памятников V-VIII вв. – Л., 1980.
17. Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. – Тошкент, 1995.
18. Неъматов Ҳ., Сайфуллаева Р., Қурбонова М. Ўзбек тили структурал синтаксиси асослари. – Т., 1999.

19. Сайфуллаева Р., Менглиев Б. в.б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. III. –Т., 2006.
20. Курбонова М. Ҳозирги замон ўзбек тили (содда гап синтаксиси учун материаллар). – Т., 2002.
21. Поцелуевский А.П. Основы синтаксиса туркменского литературного языка. – В кн.: Поцелуевский А.П. Избранные труды. Ашхабад, 1975.
22. Севортян Э.В. О некоторых вопросах сложноподчиненного предложения в тюркских языках. В кн.: Исследования по сравнительной грамматике тюркских языков. Синтаксис. – М., 1961.
23. Соколов С.А. Типология сложных синтаксических конструкций в турецком языке. – В кн.: Вопросы тюркской филологии. – М., 1966.
24. Соколов С.А. Исследование по синтаксису сложного предложения в современном турецком языке: Автореф. дисс. докт. филол. наук. – М., 1974.
25. Грамматика алтайского языка. Составлена членами Алтайской миссии. – Казань, 1869.
26. Грамматика современного русского литературного языка. – М., 1970.
27. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили грамматикаси. II том. Синтаксис. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 250 б.



## “DISKURS” YOKI MATN TUSHUNCHASI HAQIDA

**Faxriddin YAKUBOV,**

SamDU Kattaqo‘rg‘on filiali  
gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada “diskurs” va “matn” tushunchalari, ularni o‘rganishga turlicha yondashuvlar, rus, g‘arb va o‘zbek olimlarining diskurs va matnni o‘rganish bo‘yicha xulosalari tahlil qilingan va ikki atamaning o‘xshashlik va farqlarini aniqlashga harakat qilinadi. Ma’limki, diskurs ancha keng universal tilshunoslik obyekti bo‘lib, u nafaqat nutqning til strukturasini o‘z ichiga oladi, balki kommunikativ situatsiyalarning bir tipdagi parametrlarini, kommunikantlarning o‘ziga xosliklarini, muloqot qurilishi strategiyasini o‘z ichiga oladi. Diskursdan farqli ravishda matn nutqning struktur-ma’noviy parametrlari doirasidan tashqari chiqmaydigan ancha spetsifik va tor ko‘rinishni namoyon qiladi. O‘zbek tilshunosligida bu tushuncha haqida ayrim ilmiy ishlar yaratilgan bo‘lib, ushbu ishlarning davomi sifatida ushbu maqolada tushunchaning nazariy asoslari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shuningdek, tahlil qilingan nazariy mulohazalar asosida diskursning uch aspektda namoyon bo‘lish va tasniflanishi keltirib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** nutq, matn, til jihati, niyat, ekstralingvistik omillar, nutq, kommunikativlik, tildan foydalanish, kontekst, taklif, yozma til.

---

## ON THE CONCEPT OF "DISCOURSE" OR TEXT

**Fakhriddin YAKUBOV,**

Teacher of the Department of Humanities,  
Kattakurgan branch of SamSU

### ANNOTATION

The article discusses the notions of “discourse” and ‘text’, different approaches to their study in different fields, the conclusions of Russian, Western and Uzbek scholars on the study of discourse and text and tries to determine similarities and differences of the two terms. It is known that discourse is a fairly wide universal object of linguistics, which includes not only the language structure of speech, but also the parameters of the type of communicative situations, the characteristics of communicators, and the strategy for building communication. Unlike discourse, the text demonstrates a more specific and narrow view that does not go beyond the structural and spiritual parameters of speech. In Uzbek linguistics, several scientific works have been created about this concept, and as a continuation of these works, this article discusses the theoretical foundations of the concept. Also, on the basis of the analyzed theoretical considerations, the manifestation and classification of the discourse in three aspects is mentioned.

**Key words:** discourse, text, aspect of language, intention, extralinguistic factors, utterance, communicativeness, use of language, context, proposition, written language.

---

## О ПОНЯТИИ «ДИСКУРСА» ИЛИ ТЕКСТА

**Фахриддин ЯКУБОВ,**

преподаватель кафедры гуманитарных наук  
Каттакурганского филиала СамГУ

## АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются понятия “дискурс” и “текст”, различные подходы к их изучению в разных областях, выводы российских, западных и узбекских ученых по изучению дискурса и текста и делается попытка определить сходства и различия этих двух терминов. Известно, что дискурс является достаточно широким универсальным объектом языкознания, включающим в себя не только языковой строй речи, но и параметры типа коммуникативных ситуаций, характеристики коммуникаторов, стратегию построения коммуникации. В отличие от дискурса текст демонстрирует более конкретный и узкий взгляд, не выходящий за рамки структурно-духовных параметров речи. В узбекском языкознании об этом концепте создано несколько научных работ, и как продолжение этих работ в данной статье рассматриваются теоретические основы концепта. Также на основе проанализированных теоретических соображений упоминается проявление и классификация дискурса в трех аспектах.

**Ключевые слова:** дискурс, текст, аспект языка, интенция, экстралингвистические факторы, высказывание, коммуникативность, использование языка, контекст, предложение, письменная речь.

---

“Diskurs” tushunchasi lisoniy muloqot tahliliga o‘z shaxsiy nuqtayi-nazari bilan bir qadar ideologik yondashuvni taqozo qiladi. Mishel Fuko bu so‘zni keng qamrovli ma’noda ko‘rib chiqib, diskursni lisoniy emas, balki umummadaniy tushuncha deb hisoblaydi. U yozadi: “ ... Diskurs, shubhasiz – belgi hodisasi, lekin bu - narsalarni ifodalash uchun belgilarning shunchaki ishlatilishidan ko‘ra ko‘proq ish bajaradigan hodisa. Aynan uning ana shu ko‘proq ish bajarishi uni til va nutqqa qiyoslab bo‘lmasligini ta’minlaydi” (Fuko, 1996). M. Fuko tushunchasi bo‘yicha diskurs birligi va “atom”i bu fikrdir. Fikrlar majmui diskursiv formatsiyalarni tashkil qiladi. Fuko formatsiyalarga insoniyat jamiyatining iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, tirik jonotlar haqidagi fanlar kabi iqlimiy diskurs haqida gapirishga izn beradigan diskursni, tabiiy tarix diskursini, psixiatriya diskursini kiritadi. Fukoning tan olishicha, “diskurs” tushunchasining bunday ishlatilishi hamma tomonidan qabul etilmagan, biroq tilshunoslar unga butunlay boshqacha ma’no beradilar. Tilshunoslik bo‘yicha tadqiqotlarda “diskurs” ekstralingvistik, pragmatik, ijtimoiy madaniy, psixologik va boshqa faktorlar bilan birgalikdagi bog‘langan matn deb talqin qilinadi.

Y.S.Stepanov diskursga V.Z.Demyankov bergan ta’rifni eng yaxshi ta’rif deb hisoblaydi. “Diskurs – bitta gapdan yoki mustaqil gap qismidan ko‘proq matnning ixtiyoriy fragmenti. Ko‘pincha, lekin doimo emas qandaydir tayanch konsept atrofida jamlanadi. Harakatlanadigan shaxslar, obyektlar, holatlar, zamonlar, harakatlarni tasvirlaydigan umumiy kontekstni hosil qiladi. Diskurs gaplarning ketma-ketligidan emas, uni hosil qiladigan va talqin qiladigan, diskurs bilan “yaratiladigan” olam tomonidan aniqlanadi”. Qayd etish kerakki, ta’rifning bu qismida V.Z.Demyankov diskursning intensional tuzilishini ifodalayapti, chunki bu yerda gap talqin etuvchi olam haqida, ya’ni intensional gorizont va interpretatsiya konteksti haqida ketayapti. Shu bilan birga diskurs mantiqiy tuzilishga ham ega deb hisoblaydi ushbu ta’rif muallifi. Diskurs uchun boshlang‘ich tuzilish konyunksiya, dizyunksiya va boshqa mantiqiy munosabatlari bilan o‘zaro bog‘langan elementar propozitsiyalar ketma-ketligi ko‘rinishiga ega. Diskurs elementlari: bayon etilgan voqea-hodisalar, ularning qatnashchilari, performativ axborotlar va hodisalar emas, ya’ni, a) hodisalardan keyingi holatlar; b) hodisalarni aniqlashtiradigan fon; v) voqea-hodisa qatnashchilari bahosi; g) diskursni voqealar bilan solishtiridigan axborot (Stepanov, 1995: 37-38).

Ikkala ta'rifdan kelib chiqib aytish mumkinki, diskursni barcha ekstralingvistik faktorlar bilan birgalikda, dunyo, fikrlar, qarashlar, baho, adresantning maqsadini o'z ichiga olgan matn yoki harakatdagi nutq deb tushunsa bo'ladi. Shunday qilib, diskurs kengroq va ochiqroq tushunchadir.

Y.S.Stepanov diskursni muqobil dunyo, fakt, sabab tushunchalari bilan bog'laydi. U shuningdek diskursni alohida ijtimoiy borliq ko'rinishida namoyon bo'lgan "til ichidagi til" sifatidagi keng lingvo-falsafiy izohini beradi (Stepanov, 1998). Bunda diskursni shunchaki til sifatida grammatika, stil yoki leksikon kabi hisoblab bo'lmaydi. U eng avvalo, matnlarda mavjud, lekin shunday matnlardaki, ularning ortida alohida grammatika, alohida leksikon, alohida so'z ishlatilish va sintaksis qoidalari, alohida semantika mavjud bo'lgan matnlarda, bir so'z bilan aytganda diskurs alohida dunyodir. Garchi Y.S.Stepanov diskursni matnlarda mavjudligi haqida aytgan bo'lsa-da, uning diskursni alohida dunyo sifatida ko'rishi diskurs matn doirasidan tashqari tushuncha deb xulosa qilishga olib keladi.

Endi bir qancha xorijlik tilshunoslarning diskurs tushunchasini qanday aniqlashganliklarini ko'rib chiqamiz. Debora Shifrin bu tushunchaga uch tomonlama yondashadi. Birinchi yondashuv tilshunoslikning formal yo'naltirilgan pozitsiyasidan diskursni shunchaki gap yoki so'z birikmasi darajasidan yuqorida turadi deb hisoblaydi - "language above the sentences or above the clause" (Makarov, 1998: 69). Ikkinchi yondashuv diskursga "the study of discourse is the study of any aspect of language use" (Makarov, 1998: 69) "tilning turli-tuman ishlatilishi" sifatida funksional ta'rif beradi. Bu yondashuv tilning keng ijtimoiy-madaniy kontekstdagi vazifasini o'rganishni nazarda tutadi. Uchinchi yondashuv shakl va funksiyaning o'zaro harakatini ta'kidlaydi: diskurs-fikr - "discourse as utterances" (Makarov, 1998: 70). Bu ta'rifga ko'ra diskurs "gapdan kattaroq" bo'lgan lisoniy tuzilmalarning ajratib olingan primitiv yig'indisi emas, til ishlatilishining funksional tashkil qilingan, kontekstuallashgan birliklarining majmuidir.

Robert de Bograndning ushbu tushunchaga yondashuvi shubhasiz qiziqish uyg'otadi. Olim bu tushunchani boshqacha nazar bilan, aytish mumkinki, mutlaqo original kontekstda yoritadi. Bogrand ta'kidlaydiki, real dunyoda til o'z-o'zicha mavjud emas. "Siz kanal sohilida sayr etayotgan golland tilini, bir chashka choydan huzur qilayotgan ingliz tilini yoki qandaydir ish bilan mashg'ul nemis tilini topolmaysiz. Siz faqat diskurslarni, ya'ni real kommunikativ voqealarni topasiz (Beaugrande, 1997:36).

Bunday nuqtayi nazarni diskurs nazariyasini ishlab chiqqan etakchi olimlardan golland tilshunosi T.van Deyk ham bildiradi. U ham diskursni kommunikativ hodisa deb hisoblaydi. Kishilar tilni o'z fikr va g'oyalarini uzatishda ishlatadilar. Bu o'z navbatida murakkabroq ijtimoiy harakatlarning bir qismi hisoblanadi (Dijk, 1997). T.van Deykning tushunchasiga ko'ra diskurs – bu tilning ishlatilishi, fikr va e'tiqodlarning berilishi, nutqiy ta'sirdir.

Diskurs tushunchasini ko'rib chiqishda "diskurs" va "matn" o'zaro munosabatlariga oydinlik kiritish talab etiladi.

V.G.Borbotkoning ta'kidlashicha, matn diskursga nisbatan umumiyroq tushunchadir. Olimning fikricha, diskurs ham matn, faqat kommunikativ birliklardan tashkil topgan matn. Gaplarning kattaroq birliklarga birikishi va ularning ichki ma'noviy bog'lanishlarga ega bo'lishi ularni bir butun tuzilma deb hisoblashga imkon beradi. Diskurs deb, masalan, hikoya, matnlar, maqolalar, chiqishlar, she'rlarni hisoblash mumkin (Borbotko, 1981). Shu bilan birga V.G.Borbotko diskursning "yuqori kommunikativ birlik" sifatidagi statusini inkor qilmaydi (Borbotko, 1981: 104).

Ba'zi tilshunoslar "diskurs" va "matn" kategoriyasini farqlashga harakat qilib, bu tushunchalar o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlamoqchi bo'ladilar. Diskursni "matn plyus situatsiya", matnni esa "diskurs minus situatsiya" qabilida tasniflashni taklif qiladilar (Ostman, Virtanen, 1995:240).

Ba'zan bu kategoriyalarni farqlashda yozma matn og'zaki matnga qarama-qarshi qo'yiladi. I.R.Galperinda matnning quyidagicha izohini ko'ramiz. "Matn – nutqiy ijodning yozma shaklda ko'rinishi" (Galperin, 1981:18). Z.Y.Turayeva og'zaki nutqni e'tibordan chetda qoldirib, matnning juda tor ta'rifini beradi. Uning aytishicha, "matn – yozma hujjat shaklida obyektlangan tugallanganlikka ega nutqiy ijodiy jarayonning mahsuli" (Turayeva, 1986: 11). Til va nutqni formal o'rganuvchilar uchun xarakterli bo'lgan ushbu yondashuv bu kategoriyalarni lisoniy borliqning faqat ikki shakliga – yozuvdan foydalanuvchi va foydalanmaydiganlarga bo'lib o'rganishni nazarda tutadi. Bu dixotomiyaga asoslanib bir qator tilshunoslar diskurs tahlilni obyekti og'zaki nutq va yozma matn tilshunosligi bo'lishi kerak degan fikrdalar (Hoey, 1983: 4). Bunday yondashuvning qo'l kelmasligi ba'zan ko'rinadi, masalan, dokladni ayni paytda ham yozma matn va chiqish qilishdir (kommunikativ hodisa). Garchi bu tabiatiga ko'ra monologik nutq bo'lsa-da, ushbu faoliyat turida lisoniy muloqotning butun spetsifikasini aks ettiradi.

Juda ko'p funksional yo'naltirilgan tadqiqotlarda diskurs va matnni bir qancha oppozitiv kriteriyalar: funktsionallik-strukturaviylik, jarayon-produkt kriteriyalari bo'yicha qarama-qarshi qo'yish tendensiyasi kuzatiladi. Shunga ko'ra struktur matn – produkt (mahsulot), funksional diskurs-jarayon deb farqlanmoqda (Makarov, 1998). Ba'zi tilshunoslar diskursni odatda bir muallifga tegishli bo'lgan matnga qarama-qarshi ravishda o'zaro nutqiy ta'sirning interaktiv usuli deb tushuntirmoqdalar. Bunday qarama-qarshi qo'yish dialog va monologning an'anaviy oppozitsiyasiga yaqin. Diskurs iva matnni bunday farqlash o'rinsizligini T. Van Deyk ko'rsatib o'tgan. Diskursni gapiruvchi va retsipient kabi tildan foydalanuvchilarni o'zida jo qilgan verbal o'zaro ta'sir shakli sifatida qarab, olim ta'kidlaydiki, "matn ham o'zaro ta'sir shaklidan ko'ra verbal aktlar mahsulidir" deydi va yana ta'kidlaydiki, "... biroq bunga qaramasdan matnning ham muallif va o'quvchi kabi o'z "foydalanuvchilari" bor" (Dijk, 1997: 3). Ravshanki, biz yozma o'zaro ta'sir haqida gapira olamiz.

Shunday qilib, diskurs va matn o'rtasidagi farqlarga qaramasdan, ular o'rtasida o'xshashliklar bor. T.Van Deykninig hisoblashicha, bu matnni diskursda reallashadigan abstrakt nazariy konstrukt sifatida "diskurs" tushunchasiga kiritish uchun etarli (Dijk, 1985). Gap ham fikrda aktuallashadi. J. Lich aytganidek, matn xabarda reallashadi va bu orqali diskurs amalga oshadi (Leech, 1983: 59).

Ko'rib turganimizdek, zamonaviy tilshunoslik "diskurs" tushunchasiga turli-tuman yondashuvlar bilan boydir. A.M.Kaplunenko "diskurs" va "matn" tushunchasi munosabatini aniq ifodalaydi. Olimning fikriga ko'ra "diskurs ancha keng universal tilshunoslik obyekti bo'lib, u nafaqat nutqning til strukturasini o'z ichiga oladi, balki kommunikativ situatsiyalarning bir tipdagi parametrlarini, kommunikantlarning o'ziga xosliklarini, muloqot qurilishi strategiyasini o'z ichiga oladi. Diskursdan farqli ravishda matn nutqning struktur-ma'noviy parametrlari doirasidan tashqari chiqmaydigan ancha spetsifik va tor ko'rinishni namoyon qiladi (Kaplunenko, 1991). Diskursni bunday keng tushunish bugun bu masalaga tegishli barcha lingvistik adabiyotlarda uchraydi. Albatta, bularning hammasini qamrab ololmaymiz va asos sifatida T. Van Deykning qarashini qabul qilamiz. Unga ko'ra diskurs bu murakkab kommunikativ hodisa, u matndan tashqari ekstralingvistik faktorlarni (matnni tushunish uchun zarur bo'lga dunyo haqidagi bilim, fikrlar, qarashlar, adresatning maqsadini) ham o'z ichiga oladi. Olimning qarashlariga ergashib

diskursni uch aspektda ko‘ramiz: 1) tilning ishlatilishi, 2) g‘oya va e‘tiqodlarning berilishi (muloqot), 3) ijtimoiy–shartli situatsiyalarda o‘zaro harakat.

Aniq ko‘rinib turibdiki, xulosa o‘rnida aytishimiz mumkin, uch aspektni o‘rganishga integratsion yondashuv til ishlatilishining g‘oya va e‘tiqodlarning berilishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi va aksincha, o‘zaro harakat aspektlari kishilarning gapirishlariga qanday ta’sir ko‘rsatishlari va muloqot jarayonida e‘tiqodlar til ishlatilishi va o‘zaro harakatga qanday ta’sir etishi haqida tasavvur beradi.

### **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Фуко М. Археология знания / М.Фуко. – Киев: Ника – центр, 1996. – С. 207.
2. Степанов Ю.С. Альтернативный мир, Дискурс, Факт и принцип Причинности / Ю.С.Степанов // Язык и наука конца XX века. – М.: Российский Государственный гуманитарный институт, 1995. – С. 35 – 73.
3. Степанов Ю.С. Язык и метод. К современной философии языка / Ю.С.Степанов. – М.: “Языки русской культуры”, 1998. – 784 с.
4. Макаров М.Л. Интерпретативный анализ дискурса в малой группе / М.Л.Макаров. – Тверь: Изд-во Тверского госуд. университета, 1998. – 199 с.
5. Beaugrande de R. The Story of Discourse Analysis / R. de Beaugrande // Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. – London-Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications, 1997. Vol.1. – P.35 – 63.
6. Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction / van T.A.Dijk. – London – Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications. – 1997. – Vol.1. – 352 p.
7. Борботько В.Г. Элементы теории дискурса / В.Г.Борботько. – Киев: Вища школа, 1981. – 144 с.
8. Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования / И.Р.Гальперин. – М.: Наука, 1981. – 140 с.
9. Тураева З.Я. Лингвистика текста: (Текст: структура и семантика). Учеб. пособие / З.Я.Тураева. – М.: Просвещение, 1986. – 126 с.
10. Hoey M. The Place of Clause Relational Analysis in Linguistic Description / M.Hoey // English Language Research Journal. - 1983/4. – Vol.4. – P. 1 – 32.
11. Dijk van T.A. Semantic Discourse Analysis / van T.A. Dijk // Handbook of Discourse Analysis. Dimensions of Discourse. – London: Academic Press Inc. (London) LTD. - 1985. – Vol. 2. - P. 103 – 135.
12. Leech G.N. Principles of Pragmatics / G.N.Leech. – London – New- York; Longman Linguistic Library, 1983. – 250 p.
13. Каплуненко А.М. Историко – функциональный аспект английской идиоматики: Монография /А.М.Каплуненко. – Ташкент: Изд - во Ташкент. ГПИ им. Низами, 1991. – 126 с.
14. Каплуненко А.М. Историко – функциональный аспект идиоматики (на материале фразеологии английского языка): Дис. ... д-ра. филол. наук: 10.02.04 / МГЛУ – Москва, 1992. – 351 с.

## **ADABIYOTSHUNOSLIK**

### **NAVOIY LIRIKASIDA QADIMIY TURKIY SHE'RIYAT AN'ANALARI TAKOMILI**

**Dilorom SALOHIIY,**  
filologiya fanlari doktori, professor,  
Samarqand davlat chet tillar instituti Yaqin sharq tillari kafedrası,  
E-mail: dsalohiy@gmail.com; diloromopa1959@umail.uz  
(O'zbekiston)

#### **ANNOTATSIYA**

Maqolada Alisher Navoiyning badiiy obraz yaratishdagi qadimiy turkona she'riyat an'alariga xos mahorati tahlil qilinadi. Turkona she'riyat uslubi bu tilda so'zlashuvchi Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy uslubi sifatida ahamiyatga ega. Muallif mazkur uslubning Navoiy she'riyatida boshqa sharq poetik uslublari sintezi sifatida namoyon bo'lganligini misollar asosida ko'rsatishga harakat qiladi. Shoir o'z g'azallarini tahrir qilishi natijasida tazmin va tatabbu' san'atining o'ziga xos usullarini yaratdi. Navoiy g'azallarini devonlariga joylashtirar ekan, ularning mavzu, mazmun mundariyasi, kompozitsion tuzilishiga alohida e'tibor berdi. Buning natijasida u turkiy she'riyatning qadimiy an'alaridan ijodiy foydalanib, uni sharq poetikasi qonuniyatlari mezonlari asosida rivojlanishi uchun katta zamin yaratdi.

**Tayanch iboralar:** she'riy mahorat, turkona uslub, badiiy timsol, musammat, tazmin, estetik qonuniyatlar.

---

### **РАЗВИТИЕ ДРЕВНЕТЮРКСКИХ ПОЭЗИЧЕСКИХ ТРАДИЦИЙ В ЛИРИКЕ НАВОИ**

**Дилором САЛОХИЙ,**  
доктор филологических наук, профессор,  
Самаркандский государственный институт  
иностранных языков, кафедра ближневосточных языков,  
E-mail: dsalohiy@gmail.com; diloromopa1959@umail.uz  
(Узбекистан)

#### **АННОТАЦИЯ**

В статье анализируется мастерство Алишера Навои в создании художественного образа, характерного для древних традиций тюркской поэзии. Стиль тюркской поэзии важен как древний стиль народов Центральной Азии, говорящих на этом языке. Автор пытается на примерах показать, что этот стиль проявляется в поэзии Навои как синтез других восточных поэтических стилей. В результате редактирования своих газелей поэт создал собственные приемы искусства тазмин и татаббу. Особое внимание автор уделяет содержанию, композиционному строю газелей, а также тому, как Навои размещал их в своих диванах. В результате он творчески использовал древние традиции тюркской поэзии и создал прекрасную почву для ее развития на основе критериев восточной поэтики.

**Ключевые слова:** поэтическое мастерство, тюркский стиль, художественный образ, мусаммат, тазмин, эстетические законы.

---

## DEVELOPMENT OF ANCIENT TURKIC POETRY TRADITIONS IN NAVOI'S LYRICS

**Dilorom SALOHIIY,**

doctor of philological sciences, professor,  
Samarkand State Institute of Foreign Languages,  
Department of Middle Eastern Languages,  
E-mail: dsalohiy@gmail.com; diloromopa1959@umail.uz  
(Uzbekistan)

### ANNOTATION

The article analyzes the skill of Alisher Navai in creating an artistic image, characteristic of the ancient traditions of Turkic poetry. The style of Turkic poetry is important as an ancient style of Central Asian people who speak this language. The author tries to show on the basis of examples that this style is manifested in Navai's poetry as a synthesis of other oriental poetic styles. As a result of editing his ghazals, the poet created his own methods of tazmin and tatabbu art. While placing Navai's ghazals in his divans, he paid special attention to their theme, content, and compositional structure. As a result, he creatively used the ancient traditions of Turkish poetry and created a great ground for its development based on the criteria of Eastern poetics.

**Basic phrases:** poetic skill, Turkish style, artistic image, musammat, tazmin, aesthetic laws.

---

Oʻrta asrlarda turkiy tilda badiiy asarlar yaratishning oʻziga xos anʼanalari mavjud edi. X-XII asrlar oʻzbek diniy adabiyotida, xususan, Xoja Ahmad Yassaviy ijodida turkiy sheʼriyatning asosiy tarkibiy omillaridan biri boʻlmish xalqchilik anʼanasi – badiiy fikrning til va uslub jihatidan oddiy xalqqa tushunarli, taʼsirchan sheʼriy ifodasi koʻzga tashlansa, XVI asr boshlaridagi adabiy yodgorliklarda nafaqat mavzu va mazmun, balki shakl jihatidan ham oʻziga xos turkonalikka intilish, aniqrogʻi, turkiy qoʻshiq uslubi va vazniga murojaat etish hollari kuzatiladi. Nosiruddin Burhoniddin oʻgʻli Rabgʻuziyning «Qisas ul-anbiyo» (1310/11) asarida turkiy qoʻshiqning shoyon vaznlaridan biri ramali musammani maqsurda yozilgan sheʼrning uchrashi bunga bir misol boʻla oladi:

Kun hamalga kirdi ersa, keldi olam navroʻzi,

Kechdi bahman, zamharir qish, qolmadi qori boʻzi...

Haydar Xorazmiy Nizomiyning «Maxzan ul-asror» dostoni tarjimasiga kirishar ekan, turkiy tilda yozilishi lozim boʻlgan nazmiy asarlarning badiiy jihatdan yuksak, yaʼni tom maʼnoda turkona boʻlishi uchun sheʼrning qoʻshiq janri bilan uygʻunligi muhim talablardan biri ekanligini taʼkidlab, «Gulshan ul-asror» dostonida yozadi:

Turk zuhuridur oʻchunda bukun,

Boshla ulugʻ yir bila turkona un...

Turk surudini tuzuk birla tuz,

Yaxshi ayolgʻu bila koʻkla qubuz.

Turkiy tildagi xalqchil she'riyatning turkiy mumtoz she'riyat darajasiga yetish jarayoni, ma'lum bo'lganidek, XV asrning ikkinchi yarimlarigacha davom etadi. Bu ijodiy takomil jarayoniga Alisher Navoiy lirikasi yakun yasadi. Navoiy qadimgi o'zbek tilining taqdiri yuzasidan Sulton Husayn Boyqaro amalga oshirgan siyosat va amaliy tadbirlarni o'ziga xos yo'sinda qo'llab-quvvatladi. Forsiy va turkiy tillarida ijod qilish iqtidoriga ega bo'lgan Husayn Boyqaro o'z asarlarini, asosan, o'zbek tilida yaratganligi tasodifiy emas edi va Navoiy «Muhokamat ul-lug'atayn» da yozishicha, uning tomonidan «...iltifot va ixtimom yuzidin ba'zi ma'nilar topib, nazm qilurg'a hukmlar ham joriy bo'ldi va so'z uslubig'a ta'yinlar va adosig'a ta'limlar ham izhori bo'ldi». Binobarin, u «Majolis un-nafois» ning 8-majlisida Husayniy g'azallarining qofiya va radiflaridagi ixtirolarini ta'rif etadi. Navoiy turkiygo'y shoirlar ijodida qofiya masalasiga jiddiy e'tibor berib, qofiyaning ohang jihatidan muvofiq bo'lishini turkona, ya'ni, sodda, xalqona, og'zaki ijod namunalariga yaqin, deb baholaydi. Biroq, bu hodisani klassik sharq she'riyati badiiy qonuniyatlari talablari nuqtayi nazaridan tanqid qiladi. Shoirning Husayniy devonidan keltirgan baytlari muzmunan turkona, qofiyaning asosi bo'lmish raviy nuqtayi nazaridan esa klassik adabiyot qofiya nazariyasi talablariga javob beradigan bo'lganligi sababli ham tahsinga sazovor bo'ladi. Demak, shu munosabat bilan Navoiy Husayniyning ijodi turkiy she'riyatni mumtoz adabiyot poetikasi qonun-qoidalarini doirasiga kirishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lganligini bilvosita ta'kidlaydi. Turkiy she'riyatning badiiy qonuniyatlari tizimi talablariga yaqin, tabiiy rivojini yanada tezlatish uning adabiy-estetik o'ziga xosligi va ijtimoiy faolligini oshirish uchun nimalarga e'tibor qilmoq kerakligini Navoiy birinchi bo'lib anglab etdi. Eng avvalo, shoir turkona uslubiy asoslardagi she'riyatning klassik uslub darajasidagi takomili uchun turkonalik an'analaridan katta mahorat bilan foydalanib ijod qildi. Ikkinchidan, turkiy she'riyatni musta'zod va musammat kabi yangi janrlar bilan boyitdi. Bundan so'ng, betakror badiiy tasvir usullari va favqulodda ta'sirchan badiiy lavhalar yaratish bilan bir qatorda, tatabbu va tazmin san'atlarining ham yangicha namoyishini ko'rsatdi.

Shu o'rinda Alisher Navoiyning «turkona» atamasiga bo'lgan munosabatini aniqlab olmoq lozim. Navoiy bu atamani ham ijobiy, ham salbiy ma'noda qo'llaydi. Taniqli adabiyotshunos Y.Ishoqov Navoiyning turkona she'riyatga bo'lgan salbiy munosabatini quyidagi mulohazalar bilan izohlaydi: «...poetik sintaksisning oddiyliigi, engil vaznlarning (ko'proq engil vaznga ega ramal va hazaj bahri) qo'llanilishi, qofiya masalasida folklorga yaqinlik (ya'ni, alliteratsion-intonatsion printsiplarning saqlanganligi), janr hukmronligi (ko'proq tuyuq) poetikasi (g'azalning hajmi, kompozitsiyasi, tematikasi) borasida ham o'ziga xoslikka ega. Lekin bunday xarakterdagi she'rlar uchun xilma-xil murakkab figuralar xarakterli bo'lmasa-da, tajnis san'ati muhim mavqega ega» /Ishoqov, 1990;3-8/. Shoirning «turkona» ga bo'lgan ijobiy munosabatini esa uning quyidagi «turkiy» deb atalmish qo'shiq turiga nisbatan aytilgan mulohazalaridan anglab olish mumkin: «Yana surudedurkim, ani «turkiy» debdurlar, bu lafz anga alam bo'lubdur va ul g'oyatdin tashqari dilpisand va ruhafzo va nihoyatdin mutajoyiz aysh ahdig'a sudmand va majlisoro suruddur...» (Alisher Navoiy, 1998: 131). Ko'rinayotganidek, Navoiy turkona she'riyatga shakl va poetika talablari nuqtayi nazaridan baho berganda salbiy munosabat bildiradi, mavzu, ma'no-mazmun nuqtayi nazaridan yondashganda esa ijobiy fikrlar bayon etadi. «Mezon ul-avzon» asarida shoir turkiy tildagi she'rlarni «asosan, qo'shiqlar» vaznlari nuqtayi nazaridan tahlil etar ekan, «turkiy» deb atalmish qo'shiq turiga alohida to'xtaladi. Navoiy yuqorida keltirgan tavsifda «turkiy» ni «surud» deb atagan. Surudning bir ma'nosi – ashula, qo'shiq bo'lsa, ikkinchi ma'nosi she'r – demakdir. Navoiy «turkiy» ning yozma adabiyot poetikasi qonuniyatlarini qabul qilganligiga e'tibor berib, uning she'rlik ma'nosiga ko'proq moyillik ko'rsatganligi sezilib turadi. Shu nuqtayi



nazardan, «...shoir «turkiy» ga alohida she'r janri sifatida qaraydi va uning o'ziga xos janriy xususiyatlarini ham ko'rsatib o'tadi. Bulardan birinchisi shundan iboratki, turkiy eski o'zbek tilida yozilib, shu munosabatda turkiy nomi bilan shuhrat qozongan... Ikkinchidan «turkiy» «g'oyatdin tashqari dildisand va ruhafzo va majlisoro suruddur», uchinchidan, «turkiy» da fikr ravon til va badiiy jihatdan noziklik bilan ifodalangan, va nihoyat, to'rtinchidan, u ramali musammani maqsur vaznida yozilgan» (Valixojayev, 1988: 56). Shu tarzda olim Navoiyning «Mezon ul-avzon» da bergan ma'lumotlariga asoslanib, «turkiy» ning boshqa she'riy janrlardan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlarini, qisqacha bo'lsa-da, bayon etadi. Ta'kidlash joizki, Navoiyning «Majolis un-nafois» va «Mezon ul-avzon» asarlaridagi boshqa ma'lumotlar ham «turkiy» ning janr xususiyatlarini aniqroq tasavvur etishga imkon beradi.

Bobur ham xalq qo'shiqlaridan tarxoniy va turkiy haqida ma'lumot berar ekan, «Sulton Husayn Mirzoning zamonida yana bir surud chiqdikim, «turkiy» ga – o'q mavsum bo'ldi, anga ushbu vaznni taqsim qilurlar, ul dag'i ikki davrda bog'lanibdur» (Bobur, 1959:155) – deydi. Demak, Alisher Navoiy va Boburning ilmiy risolalarida maxsus qayd etilib, muayyan shakl va mazmun hamda tematik jihatdan o'z qiyofasiga ega bo'lgan «turkiy» she'r bu davrda lirik janr darajasiga ko'tarila borgan.

She'riyatda shakl va mazmun munosabatlari masalasida muzmun etakchiligini doim ta'kidlagan Navoiy «turkiy» ni yangi mazmun va rang-barang mavzular bilan boyitishni maqsad qildi. Ya'ni, Alisher Navoiy «turkiy» si faqat ishq va muhabbat bilan bog'liq bo'lgan kayfiyat bayoni yoki tasviridan iborat bo'lib qolmay, unda falsafiy munosabat kuchayadi, ishq va muhabbat tushunchasi, yor va uning tasviri tushunchasi yanada kengayadi. Shu nuqtayi nazardan, Navoiyning «turkiy» uslubda muayyan syujet chizig'iga ega bo'lgan yakpora va tadriji g'azallarni ko'plab yaratganligi e'tiborlidir. Xususan, «Ilk devon» dan «Kecha kelgumdur debon...», «Ul parivashkim...», «Yog'lig'ing, eykim, tikarsen...» kabi g'azallarining o'rni olishi fikrimizga yorqin misoldir.

Navoiy «turkiy» sining yana bir xususiyati shundaki, shoir devonlarida, bir tomondan, oshiqona turkiy she'rlar mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, «turkiy» ga xos vazn va uslubda bitilgan ijtimoiy, falsafiy va satirik g'azallar ham uchraydi.

Alisher Navoiyga qadar yashagan va unga zamondosh bo'lgan turkiygo'y shoirlar ijodi, asosan, ma'lum ma'noda tematik jihatdan chegaralangan «turkiy» janridagi she'rlar doirasida qolgan bo'lsa (tuyuq janrini istisno etganda), Navoiy bu janr imkoniyatlaridan, vazni va badiiy tasvir uslubidan foydalanib, yangi mavzu va shakldagi g'azallar yaratdi.

Alisher Navoiy «Mezon ul-avzon» da qo'shiqlarning bir necha turini tavsiflab beradi, ya'ni, «Birisi «tuyug'» durkim, ...», «Yana «qo'shiq» durkim, ...», «Yana «chinga» durkim, ...», «Va yana turk ulusida bir suruddurkim, ani «muhabbatnoma» derlar...», «Va yana bu xalq orasida bir surud bor ekandurkim... ani «musta'zod» derlar emish...», «Yana Iroq ahli tarokimasida surude shoe'kim, ani «aruzvorii» derlar...», «Yana surudedurkim, ani «turkiy» debdurlar» kabi. Ana shu qo'shiq turlaridan bo'lmish musta'zodning Navoiyga qadar ijod qilgan shoirlardan faqat Gadoiy devonida yagona namunasi uchraydi.

Navoiy musta'zod uslubida she'rlar bitib, o'zining birinchi rasmiy devoni «Badoe' ul-bidoya» ga uning uchta namunasini kiritadi. «Xazoyin ul-maoniy» devonlarning har biriga bittadan shunday asarni joylashtirgan. Shoirning devonlari debochalarida batafsil asoslab bergan tadvinchilik (devon tartib berish) sohasidagi badiiy-estetik tamoyillarini nazarda tutadigan bo'lsak, uning bu hodisadan ko'zda tutgan maqsadi ayon bo'ladi. Buyuk shoir devon tartib berganda imkon qadar barcha lirik janrdagi asarlarni kiritmoq lozimligini ta'kidlar ekan,

musta'zodni o'zbek mumtoz she'riyatining lirik janrlaridan biri sifatida o'rnashib qolishini maqsad qiladi. Shu bilan birga, o'zidan keyin devon tartib beruvchilarga bu janrda ham she'rlar ijod qilish lozimligini bilvosita uqdiradi.

Alisher Navoiy o'zbek mumtoz she'riyatida musammat janri taraqqiyotiga asos solgan ijodkordir. Navoiyga qadar musammatning faqat mustaqil (tab'i xud) shakllaridagi namunalarigina yaratilgan edi. O'zbek lirik poeziyasida g'azal va musammat tarixi va rivojini mufassal tadqiq etgan olim R.Orzibekov bu haqda shunday yozadi: «...Musammatning tazmin usulidagi ilk namunalarini yaratish bilan Navoiy o'z g'azali asosida musammatlar yaratish an'anasini boshlab berdi. Alisher Navoiy boshqa qator lirik janrlarning reformatori bo'lganidek, Sharq musammatchiligi imkoniyatlarini kengaytirdi. U o'z ijodi misolida bu sohada ham hayotbaxsh adabiy maktab yaratdi. Musammatning muxammas, musaddas va musamman kabi tazmin shakllarini kashf etdi» (Orzibekov, 1976: 34) Olim keyingi yillarda Shayx Ahmad Taroziyning «Funun ul-balag'a» nomli asarining topilishi va ilmiy jamoatchilikka taqdim etilishi munosabati bilan yozgan maqolasida garchi Navoiy va Husayniyning ijodida musammatning g'azallar asosidagi tazmin namunalarini yaratish usullari kashf qilingan va badiiy ijod tajribasiga joriy etilgan bo'lsa-da, uning mustaqil (tab'i xud) namunalari XV asr birinchi yarmi turkiy-o'zbek she'riyatida ham mavjudligi ayon bo'lganligini qayd etadi. Ya'ni, ta'kidlanishicha, Hofiz Xorazmiyga zamondosh boshqa qator turkiygo'y hamda fors-tojik tilida qalam tebratgan shoirlar ham mustaqil muxammaslar yaratganlar, ammo shu zaminda Alisher Navoiy davri adabiy hayotida musammatning tazmin usulida yaratilgan namunalari ham kashf etilib, turkiy-o'zbek she'riyatining janr tarkibi boyitilgan.

Navoiy «Badoe' ul-bidoya» devoniga 5 ta muxammas kiritgan va shulardan 3 tasi Lutfiy g'azaliga, 2 tasi o'z g'azallariga bitilgan. Devondan joy olgan 2 musaddasning har ikkalasi ham Lutfiy g'azaliga yozilgan.

«G'aroyib us-sig'ar» devoniga kiritilgan uch muxammasning bittasi Lutfiy g'azaliga, ikkitasi o'z g'azaliga bog'langan. Devonga kirgan bir musaddas Navoiyning o'z g'azaliga bitilgan. Shuningdek, «Navodir ush-shabob» dagi uch muxammasdan bittasi Lutfiy, ikkitasi o'z g'azaliga, bir musaddas o'z g'azaliga bog'langan.

«Badoe' ul-vasat» devoniga bittadan Lutfiy va o'z g'azallariga muxammaslar, bittadan yana Lutfiy va Husayniy g'azallariga musaddaslar joylashtirilgan.

«Favoyid ul-kibar» devonidan esa shoirning o'z g'azallariga bog'langan ikki muxammasi, Lutfiy g'azali oltilantirilgan bir musaddas va yana shoirning o'z g'azali sakkizlantirilgan bir musamman o'rin olgan. Demak, Navoiy hammasi bo'lib Mavlono Lutfiy g'azallariga uch muxammas va ikki musaddas, Husayniy g'azaliga bitta musaddas va o'z g'azallariga etti muxammas, ikki musaddas va bir musamman bog'lagan. Navoiyning o'z g'azallaridan ijodiy foydalanib, yangi lirik janrdagi asarlar yaratganligi haqida navoiyshunos A.Abdug'afurov o'z mulohazalarini shunday bayon etadi: «Xazoyin ul-maoniyy» dagi qolgan o'n musammat Navoiyning o'z g'azallari asosida yaratilgan. Navoiy birinchi galda o'z zamonasida shuhrat qozongan g'azallarni muxammaslar shakliga keltirgan» (Abdug'afurov, 1995: 5).

Shoir musammatlarni devonlariga bir xil tartibda joylashtirgan. Ya'ni, mustazoddan keyin muxammaslar, undan keyin musaddaslar, so'ngra musamman o'rin olgan. «Xazoyin ul-maoniyy» devonlarining avvalgi ikkitasida uchtadan muxammas va bittadan musaddas, keyingi ikkitasida ikkitadan muxammas va ikkita musaddas («Favoyid»da bittasi musamman) kiritilgan. Shoir rioya qilgan yana bir estetik qonuniyat shuki, barcha devonlarda Mavlono Lutfiy g'azallariga bog'langan musammatlar birinchi o'rinda keltiriladi. Devon tahlili sohasida mukammal badiiy-

estetik printsiplarni ishlab chiqqan Navoiy shu yo'sinda musammat janrlarining devon kompozitsiyasi uchun muhim tarkibiy unsurlardan biri ekanligini ta'kidlab, uning turkiy tildagi ajoyib namunalarini namoyish etadi.

Navoiy devonlarida yana bir e'tiborga molik jihat mavjud. Bu hodisani badiiy usullardan tazmin va tatabbu qilish san'atida shoirning tutgan o'ziga xos uslubi, deb baholasak bo'ladi. Tazmin va tatabbu san'ati ishlatilgan «Xazoyin ul-maoniy» dagi 433-g'azalda avvalgi g'azalning vazni, radifi va beshta qofiyasi saqlangan. Ikkala g'azal ham tasvir asosiga qurilgan bo'lib, semantik-emotsional tasvir g'azallar kompozitsiyasi asosini tashkil etadi. G'azallarni baytma-bayt tekshiradigan bo'lsak, birinchi g'azalda tasvirlangan biror obraz yohud badiiy lavha ikkinchi g'azalda ham shu tasvir obyekti yoki u bilan bog'liq voqealarni yanada yorqinroq, kengroq ifodalab keladi. Ikki she'rda mazmunan mos bo'lgan baytlarning qofiyalari ham bir xil. Endi baytlari yonma-yon qo'yib, muqoyasa qilib ko'raylik.

Avvalo, ko'ngil obrazi bilan bog'liq lavha:

Demang ko'nglung qanikim, hajrdin behush edim,  
Qay sori borg'onin ul bexonumonim bilmadim.

(«Navodir un-nihoya», 3-bayt)

Ul pari to jilva qildi bordi ko'nglum, vah, qayon,  
Bo'ldi ul ovvorai bexonumonim, bilmadim.

(«Xazoyin ul-maoniy», 5-bayt).

Yorning ta'na qilishi bilan bog'liq lavha, «Navodir un-nihoya», to'rtinchi bayt:

Vaslidin so'z deb bu yanglig' ta'nig'a xush kelmasin,  
Bilmadim, ey qotili nomehribonim, bilmadim.

«Xazoyin ul-maoniy», uchinchi bayt:

Demadingmu, dema rashkimniki, boqting g'ayrima,  
Bilmadim, ey kofiri nomehribonim, bilmadim.

Maqta'din oldingi bayt ikki g'azalda ham ijtimoiy-falsafiy fikrlar o'zanida, shoirning foni bo'lmoq, o'zligidan qutulmoq xususidagi mushohadalari asosiga qurilgan.

«Navodir un-nihoya», oltinchi bayt:

O'zlu kimdin ranja erdim ichkali jomi fano,  
Bexud o'ldum o'ylakim nomu nishonim, bilmadim.

«Navodir ush-shabob», oltinchi bayt:

Do'stdin bildim nishon, to topmadim o'zdin nishon,  
Lek o'zdin toki bor erdi nishonim, bilmadim.

G'azallar maqta'larida mazmunan lirik qahramon – shoirning ruhiy holati bayonida tafovut ko'rinadi. Birinchi g'azal maqta'ida oshiqning tushkun, shikoyatomuz holati tasvirlansa, ikkinchi g'azal maqta'i optimistik ruh bilan sug'orilgan:

«Navodir un-nihoya», ettinchi bayt:

Ey Navoiy, oshiq o'lg'onda dedim qolg'ay nihon,  
Bo'ylakim olamni tutqay dostonim bilmadim.

«Navodir ush-shabob», ettinchi bayt:

Ey Navoiy, yor ko'ngli mehrmu qildi ayon,  
Yo asar qildi anga o'tlug' fig'onim, bilmadim.

Shu jihatlariga ko'ra, biz «Xazoyin ul-maoniy»ga kiritilgan mazkur g'azalni tatabbu san'atining go'zal namunasi deb baholaymiz.

Shuningdek, gʻazallariga oʻz baytlarini tazmin qilish hodisasi boshqacharoq shaklda shoirning gʻazallarida uchraydi. Navoiy gʻazallarini devonlariga tartib bilan joylashtirar ekan, ularning semantik strukturasi, kompozitsion tuzilishiga alohida eʼtibor bergan. Buning natijasida gʻazal kompozitsiyasi bilan bogʻliq tatabbuʼ va tazmin kabi sanʼatlarning oʻz gʻazaliyotida ijodiy rivojlanishiga va bu sohadagi anʼanalarning yangi-yangi oʻzanlarda taraqqiy etishiga imkoniyat yaratgan.

Xulosa shuki, donishmand adabiyot nazariyotchisi va mutafakkir shoir Alisher Navoiy benazir lirikasida oʻzbek sheʼriyatining qadimiy anʼanalari va badiiy oʻziga xosliklaridan ijodiy foydalanib ulkan muvaffaqiyatlarga erishgan va bu hol uning ijodkor avlodlari uchun alohida ibrat va xos maktab vazifasini bajaradi.

#### **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Абдуғафуров А. Хазойин ул-маоний девонларининг тартиб берилиши ҳақида. //Ўзбек тили ва адабиёти, 1995, №3; 5.
2. Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 16-жилд. – Тошкент, ЎзРФА: “Фан”. 1998;131.
3. Бобур. Мухтасар. – Тошкент: ЎзРФА “Фан”. 1959;155.
4. Валихўжаев Б. Алишер Навоий туркий ва туркийгўйлик ҳақида. – Самарқанд, СамДУ: СамДУ илмий мақолалар тўплами. 1988, №2;56.
5. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: ЎзРФА: “Фан”. 1976;34.
6. Исҳоқов Ё. Навоий ва ўзбек шеъриятидаги услублар масаласи //Ўзбек тили ва адабиёти, 1990, №5:3-8.

## **AZƏRBAYCAN DÖVLƏT PEDAQOJİ UNIVERSİTETİ**

**Məsmə ISMAYILOVA,**

Filologiya üzrə Fəlsəfə doktoru, baş müəllim,

E-mail: mesmeismayilova1963@mail.ru,

Azərbaycan

### **ANNOTASIYA**

Dünya müxtəlif xalqlardan və həmin xalqlara mənsub dillərdən ibarətdir. Hər xalqın və onun dilinin də müəyyən amilləri mövcuddur. Bu amillər mənsub olduğu xalqın mentalitetinə uyğundur. Dünya xalqlarının zəngin yazılı və şifahi ədəbiyyatı vardır və bu ədəbiyyatın hər iki növü mənsub olduğu dövlətin daxili qanunlarına riayət edir. Azərbaycan və İngilis dilli xalqlarının da özlərinə məxsus çox çalarlı yazılı və şifahi ədəbiyyatı mövcuddur.

Hər iki dövlətin istər yazılı istərsə də şifahi ədəbiyyatı müəyyən dövrlərə bölünmüşdür. Hər bir dövrün müxtəlif mözulu, müxtəlif xüsusiyyətli ədəbiyyat nümunələri mövcuddur. Məsələn: Azərbaycan ədəbiyyatı müəyyən dövrlərə bölünür:

Qədim dövr Azərbaycan ədəbiyyatı; Orta əsrlər ədəbiyyatı; Yeni dövr Azərbaycan ədəbiyyatı; Ən yeni dövr Azərbaycan ədəbiyyatı; Bütün bu dövrlər də öz tərkibinə görə müəyyən hissələrə bölünür. Sadalanan bütün dövrlərin yazılı və şifahi növləri mövcuddur.

İngilis dilli dövlətlərin ədəbiyyatı da Azərbaycan ədəbiyyatı kimi müxtəlif dövrlərdən ibarətdir: Şifahi xalq ədəbiyyatı; Tarixi mövzulu əsrlər; Erkən və Orta əsr ədəbiyyatı; Orta əsr ingilis ədəbiyyatı; Elizabet və Yakobin dövrü; XIX əsr ədəbiyyatı; XX əsr ədəbiyyatı və Müasir İngilis ədəbiyyatı.

Hər iki dilin istər yazılı, istərsə də şifahi ədəbiyyatı erkən dövrləri əhatə edir və hər dövrün özünə məxsus ədəbiyyat nümunələri mövcuddur. Məqalə bu mövzuda hər iki dilin müqayisəli şifahi xalq ədəbiyyatını araşdırmışdır.

**Açar sözlər:** yazılı, şifahi, tarixi, variativ, dövr, ədəbi, əlaqəli, xüsusi, əhatəli, əsr.

---

## **АЗЕРБАЙДЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**Мэсмэ ИСМАИЛОВА,**

доктор филологических наук, старший преподаватель,

E-mail: mesmeimayilova1963@mail.ru,

Азербайджан

### **АННОТАЦИЯ**

Мир состоит из разных наций и языков, которые принадлежат этим народам. Существуют специфические факторы каждой нации и ее языка. Эти факторы соответствуют менталитету людей, к которым они принадлежат. Народы мира имеют богатую письменную и устную литературу, и оба вида этой литературы соблюдают внутренним законам принадлежащей стране. Азербайджанский и англоязычные народы также имеют свою разнообразную письменную и устную литературу. Письменная и устная литература обоих государств делится на определенные периоды. И каждый период имеет свою тему и характер. Например: Азербайджанская литература делится на определенные периоды: Древний период азербайджанской литературы; Средневековый период Азербайджанской литературы; Новый период Азербайджанской литературы; Современный

период Азербайджанской литературы. И все эти периоды по своему содержанию делятся на определенные части. Есть письменные и устные виды всех указанных периодов. Литература англоязычных стран также имеет разные периоды, как и азербайджанская литература: устная народная литература, исторические литературные произведения, ранняя и средневековая литература, средневековая английская литература, елизаветинский и яacobинский периоды, английская литература XIX века, английская литература XX века и современная английская литература. Письменная и устная литература обоих языков связывает ранние периоды, и каждый период имеет свои виды литературы. В статье исследуется сравнительная устная народная литература обоих языков.

**Ключевые слова:** письменный, устный, исторический, вариант, период, литературный, связанный, особый, всеобъемлющий, век.

---

## **AZERBAIJAN STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY**

**Masma ISMAILOVA,**

Doctor of Philology, Senior Lecturer,

E-mail: mesmeimayilova1963@mail.ru,

Azerbaijan

### **ANNOTATION**

The world consists of different nations and languages, which belong to these nations. There are specific factors of each nation and its language. These factors correspond to the mentality of the people, which they belong. World people have the rich written and oral literature, and both types of this literature comply with the internal laws to the belonging country. The Azerbaijani and English-speaking people also have their own various written and oral literature. The written and oral literature of both states are divided into specific periods. And each period has its own theme and character.

For example: Azerbaijani literature is divided into definite periods: Ancient period of Azerbaijani literature; Medieval period of Azerbaijani literature; New period of Azerbaijani literature; Modern period of Azerbaijani literature. And all these periods are divided into specific parts according to their content. There are written and oral kinds of all given periods. English-speaking countries literature has also different periods, like Azerbaijani literature: oral folk literature, historical literary works, early and medieval literature, medieval English literature, Elizabethan and Jacobean periods, XIX century English literature, XX century English literature and Modern English Literature. The written and oral literature of both languages connect the early periods, and each period has its own kinds of literature. The article researches the comparative oral folk literature of both languages.

Aytish kerakki, “Muqaddamat al-adab” asaridagi leksik birliklarga berilgan izohlar zamonaviy leksikografik tamoyillarning barcha xususiyatlarini o'zida ifoda etish bilan birga, tillar va millatlar o'rtasidagi mushtarak madaniyatlar tarixini yoritishda ham alohida o'rin tutadi. Asar leksikasi nihoyatda boy bo'lib, har bir leksik birlik muayyan bir mazmunni ifoda etuvchi jumla yoki gap (matn) ko'rinishida izohlanadi. Arab tiliga xos til birliklarining fors-tojikcha, mo'g'ulcha va turkiychadagi nomlanishi, ularning ma'no va mazmuni birma-bir qiyoslanadi. Mazkur asardan o'rin olgan har bir so'zning semantik maydoni to'lig'icha qamrab olingan. Masalan, tuya (bir yoki ikki o'rkachli, juft to'yoqli, asosan, yuk tashish uchun xizmat qiladigan, suvsizlikka chidamli sutemizuvchi hayvon) leksemasi haqida gap ketganda unga xos barcha sifatlar: tuya uyuri, erkak tuya, urg'ochi tuya, tuyaboqar, ona tuya, rasta bo'lgan bo'taloq, sutdan ajratilgan bo'taloq, bahorda yoki yozda tug'ilgan bo'taloq, yoshi (o'n yoshgacha bo'lgan davri) va jinsi (bir yashar erkak tuya yoki bir yashar urg'ochi tuya tarzida), qariya tuya, tuyaning ayg'iri, muqaddas hisoblangan tuya, tuyaning baytali, bo'g'oz tuya, tug'ishi yaqinlashgan tuya, qornida o'n oylik bolasi bor tuya, urg'ochi tuyaning yoshi yoki qarisi, so'qimga boqilgan tuya, baquvvat tuya, toymaydigan tuya, sog'in tuya, sersut tuya, qochgan urg'ochi tuya, minishga yaraydigan urg'ochi tuya, miniladigan tuya, tuyaboqar minadigan tuya, ko'p miniladigan minishlik tuya, qulonday yuguradigan tuya, Xuroson tuyasi, tuya labi, yelini, emchagi, jinsiy a'zolari, tuya to'shi, tuya tovonni, tuya tizzasi, tuya yungi, tuya tirnog'i, tuya paypog'i, qumalog'i, tuya o'rkachi, burundug'i, qorinbog'i, qo'ng'irog'i, ayili, arqoni, arqon uchidagi halqa, to'qimi, to'qim yog'ochi, tuya xurjuni va boshqa tavsiflar keltirilib, izohlanadi (Рыцанов, 1971: 17-22). Mahmud Zamaxshariy lug'atida keltirilgan chorvachilik, yilqichilik, tuyachilikka oid til birliklarining katta bir qismi folklor asarlarida, xususan, o'zbek xalq dostonlarida yashab kelmoqdaki, ularning muayyan bir qismi o'zbek tilining qipchoq lahjalariga mansub bo'lib, ular umumturkiy lug'at fondini o'rganishda ham alohida ahamiyat kasb etadi.

XIII-XIV asrlarda turkiy tillarni, xususan, qipchoq tillarni o'rganish va uni yoritishga bo'lgan e'tibor nihoyatda kuchaydi. Chunki bu davrda qipchoqlar juda katta hududda (Qashqardan – Tabargacha, (Кошғарий, 1960: 495-496) istiqomat qilar edilar. Ana shu davrlar oralig'ida Misrda yozilgan va bizgacha yetib kelgan “Attuhfatuz zakiyatu fillug'atit turkiya” (Turkiy til (Qipchoq tili) haqida noyob tuhfa) asari shu davrdagi qipchoq tili va uning boy leksikasini ifodalashda qimmatli manbalardan biri hisoblanadi (Аттықфатыз, 1968).

Asarda qipchoq tilining shu davrdagi fonetik, leksik va grammatik asosiy xususiyatlari bayon etilgan. Eng asosiysi, asardagi juda ko'p so'zlar folklor materiali (so'z ma'nolarini ochib berish) ahamiyatiga egadir. Chunonchi, “Engimni solgan joyda, ochilsin guli g'uncha” iborasidagi yeng ochmoqning – ishga kirishmak, tirishmoq ma'nolari faqat shu asardagina aniq ifodalangan (Аттықфатыз, 1968).

Asarning lug'at qismida bugunda ham qipchoq shevalarida faol qo'llanilib kelinayotgan ütti – yutti - jändi (yutmoq, yengmoq), quru (quruq), uy – ev, uludī (it hurdi), üyütti (qatiq ivitmoq), uvru (o'g'ri), topa - tupa (tepa, balandlik), tūjdi – tūgdi (urdi), titti (ajratmoq), tikänäk (tikon), tiri (tirik), sīshqan- sīshqaq- shīshqan (shichqon), oyulduq (tuxum, urug'), qurut – qurt (qurt, suzma; qurt-hasharot), aq (oq), sari (sariq), sang'rav (kar) yuzlab so'zlar izohlangan. Umuman, bu asar nafaqat qipchoq lahjasi, balki turkiy tillar, shu birga o'zbek tilidagi mavjud dialektal birliklarni o'rganish, ularning tarixiy taraqqiyotini belgilashda ham eng qimmatli materiallar bera oladi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu asar mavzu mundarijasi bilan bog'liq xalq og'zaki ijodi namunalarining til xususiyatlarini o'rganishda ham shunday vazifani bajara oladi. Masalan, Fozil Yo'ldosh o'g'lining “Yodgor” dostoni matnida shundayin gap bor: Bu so'zni Yodgordan eshitib, otasi so'radi: – Bu nima voqia? «So'ngi kelgan sangrov» degan; men tushunmayapman. Bilsang sen gapir, – dedi Barchinga. Shunda Barchin Alpomishning niyatini, Shomirotning qiziga atashtirib qo'yanini, bo'lgan voqeani aytdi. Bu o'rinda biz uchun ma'nosi tushunarsiz bo'layotgan «sangrov» so'zining yuqoridagi lug'atda berilgan izohiga tayanadigan bo'lsak, matnning mazmuni oydinlashadi. Bu o'rinda qo'llangan «sangrov» so'zi «garang», «kar» kabi ma'nolarni ifodalashini, matn mazmunidan kelib chiqib esa ko'chma ma'no, ya'ni «bo'lib o'tgan voqea-hodisalardan bexabarlik» mazmunini bildiradi. Umuman, mazkur so'zning ma'nolari mavjud boshqa lug'atlarda qayd etilmagan. Shu dalilning o'ziyoq mazkur leksikografik manbaning qiymati naqadar baland ekanligini anglatadi.

XXI asr zamonaviy tilshunosligi boshqa fanlar singari xalqlarning milliy-madaniy kodlar, urf-odat va qadriyatlarini saqlab qolish hamda uni kelajak avlodlarga yetkazishning amaliy istiqbolidan samarali foydalanish usullari va yo'llari haqida tinimsiz izlanishdadir. Shu jihatdan turkiy tillarning o'q ildizini tashkil etuvchi dialektal birliklarni tasniflash va tavsiflash, tadqiq etish borasida qator xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy va amaliy xarakterdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2019-yil 10-11 sentabrida Qozon shahrida tashkil qilingan xalqaro konfrensiyada turkiy tilli davlatlar dialektologiyasining leksikasi va leksikografiyasi masalalariga oid bag'ishlangan xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Unda 100 ga yaqin taniqli olim va mutaxassislarning dolzarb mavzulardagi ma'ruzalari tinglandi. Ayniqsa, mazkur konferensiya ishtirok etgan o'zbek olimlari - N.Mahmudov, Y.Ibragimov, J.Eltazarov, M.Abdiyev, D.Xudoyberganova, D. Lutfullayevalar sohaga oid tadqiqotlar ko'lamini rivojlantirish, uning yutuq va dolzarb masalalarini birgalikda o'rganish borasida diqqatga sazovor fikrlar bildirishdi[9].

Shu bilan birga 2019-yil 12-14-sentabrida o'tkazilgan “Turk-mo'g'ul oltoy olami: tarixiy-madaniy merosi va zamonaviylik” mavzusida tashkil etilgan Birinchi Xalqaro oltoy forumi materiallari ham bu boradagi katta qadam hisoblanadi (Материалы, 2019).

Mazkur yoʻnalishdagi xalqaro konferensiyalar kelajakda turkiyshunoslikda leksik va leksikografik, shu bilan birga dialektal hamda dialektografik xarakterdagi tadqiqotlar mundarijasini belgilashda asos boʻlib xizmat qilishi shubhasiz.

### **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. XXI гасыр төрки тел белеме: Лексикология һәм лексикография. Татарстан Республикасы Фәннәр академиясенң Г.Ибраһимов исем. Тел, әдәбият һәм сәнгать институты оешуга 80 ел тулуга багышланган Халыкара фәнни конференция. *2019 ел, 10 –11 сентябрь, Казан шәһәре.* – 320 б.
2. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек тили фонетикаси тарихидан // “Ўзбек тили ва адабиёти” журналы. 1963, №2. – Б. 16-24.
3. Аттухфатуз закиятү филлуғатит туркия (Туркий тил ҳақида ноёб тухфа). – Тошкент: Фан, 1968. – 279 б.
4. Жуманазарова Г.У. Фозил Йўлдош ўғли дostonлари тилининг лингвопоэтикаси (лексик-семантик, лингвостилистик ва лингвостатистик таҳлил). Филология фанлари доктори (DSC) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2017. – Б. 5.
5. Исломов З.М. Маҳмуд Замахшарийнинг “Муқаддаматул-адаб” асарининг қўлёзма манбалари ва арабча-туркий феъллар сўзлигининг йиғма илмий-танқидий матни: Филол. фан. докт. дис. автореф. – Т: ЎзР ФА Қўлёзмалар институти, 1998.
6. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Уч томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1960. – Б.98.
7. Материалы Первого Международного алтаистического форума «Тюрко-монгольский мир большого Алтая: историко-культурное наследие и современность». Барнаул–Горно-Алтайск, 12–14 сентября 2019 г. – Барнаул: Из-дво Алт.ун-та, 2019. – 396 с.
8. Поппе Н.Н. Монгольский словарь Мукаддимат ал-адаб. Т. I-II. – М-Л., 1938.
9. Рустамов А. Маҳмуд Замахшарий. – Т.: Фан, 1971.
10. Уватов У. Нозик иборалар. – Тошкент: “Камалак”, 1992. – 80 б.



## **TURKIY XALQLARNING IJTIMOIIY-MADANIY ALOQALARI TARIXI**

### **ИККИ ЕТАКЧИ САҲОБА: ҚУСАМ ИБН АББОС ВА АБУ АЙЮБ АЛ-АНСОРИЙ ҲАМДА ИККИ МУҲИМ ШАҲАР: САМАРҚАНД ВА ИСТАНБУЛ**

**Др. Кемал Явуз АТАМАН,**  
Карабук университети, Иқтисодий  
ва маъмурий фанлар факультети,  
E-mail: kemal.ataman59@gmail.com

#### **АННОТАЦИЯ**

Ислом дини саҳобаларнинг саёҳатлари ва фатҳ ҳаракатлари билан кенг ёйилган. Саҳобаларнинг аксарияти Арабистондан ташқарида вафот этгани эътиборга моликдир. ўтмишга назар ташлайдиган бўлсак, етакчи саҳобаларнинг стратегик ва глобал фатҳ ҳаракатларида ўрин олганликлари кўринади. Ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.)га яқин бўлган етакчи икки саҳоба ва улар фатҳ этишда қатнашган икки муҳим шаҳар тарихнинг оқимини ўзгартирган эди.

Қусам бин Аббос (р.а.) Пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг амакилари ҳазрати Аббос (р.а.)нинг ўғли бўлиб, Расулulloҳга жуда яқин бўлган. Муҳожирлардан бўлган бу зот ҳазрати Али (р.а.) даврида Маккада, кейин қисқа муддат Мадинада волийлик қилган ва ҳаж амирлиги вазифасини ўтаган. Уммавийлар даврида Хуросон сафарига қатнашиб, Самарқанд фатҳи асносида шаҳид бўлган.

Абу Айюб ал Ансорий (р.а.) ансорлардан бўлиб, пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг қариндошларидир. Пайғамбаримиз (с.а.в.) Мадинага ҳижрат қилганларида у кишининг хонадонидида бир муддат меҳмон бўлиб яшаганлар. Абу Айюб Расулulloҳнинг замонида барча ғазотларга қатнашиб, у зотга кўриқчилик (тансоқчилик) ҳам қилган. Чаҳорёрларнинг даврида турли ғазотларда қатнашган, шулардан бирида ҳазрати Али (р.а.) у зотни Мадинада вакил қилиб қолдирган. Абу Айюб ал Ансорий (р.а.) Истанбулни қамал қилиш пайтида вафот этади.

Бу икки саҳоба – Пайғамбар алайҳиссаломга ва чаҳорёрларга яқинликлари, ҳазрати Али (р.а.) давридаги хизматлари ҳамда уммавийлар пайтидаги фатҳ сафарларига иштироклари билан муштарак хусусиятга эгадирлар. Улар фатҳда иштирок этган Самарқанд ва Истанбул шаҳарлари геостратегик, геосиёсий хусусиятларга эга бўлиб, Ислом маданияти, мусулмон-турк давлатлари жиҳатидан глобал ўсиш ва ўзгаришларга етакчилик қилган шаҳарлардир.

Туркийларнинг Ислом динини қабул қилиши ва унга хизмат этишида саҳобаларнинг таъсири ва муҳим ўрни бор, албатта. Самарқанд – туркийларнинг Ислом динини ўзлаштиришида, Ислом маданиятининг ривожланишида, мусулмон турк давлатларининг барпо этилишида марказий шаҳарлардан бўлган. Истанбул эса Муҳаммад алайҳиссаломнинг башоратлари, хушхабарлари соясида фатҳ қилиниб, туркларнинг Исломга қилган хизмати чўққига чиққан бир даврда фатҳи билан тарихни ўзгартирган шаҳардир. Бу икки саҳоба ва икки шаҳар тарихий ўзгаришлар ясаганлар. Ер юзида кўплаб саҳобаларнинг қабри бор. Лекин бу икки етакчи саҳоба дафн қилинган бу шаҳарлар стратегик, глобал тараққиётларнинг маркази бўлган.

**Калит сўзлар:** Саҳоба, Фатҳ, Истанбул, Самарқанд, Стратегия.

## **TWO PIONEER COMPANIONS, TWO IMPORTANT CITIES IN THE CONQUEST QUTHAM IBN ABBAS & ABU AYYUB AL-ANSARI, SAMARKAND & ISTANBUL**

**Dr. Kemal Yavuz ATAMAN,**  
Karabuk University, Faculty of  
Economics and Administrative Sciences,  
E-mail: kemal.ataman59@gmail.com

### **ANNOTATION**

Islam spread via the travels of the Companions and conquest movements. It is noteworthy that the majority of Companions died outside of Arabia. When we look at the past, we can see that important companions took place in the strategic and global conquest movements. Two pioneer exemplary companions, known for their closeness to Prophet (S.A.W.), participated in the conquest and siege of two cities; this became the focus of the developments which changed the flow of the history.

Qutham ibn Abbas (R.A.) was the son of Abbas (R.A.) who was the uncle of Prophet (S.A.W.); he was very close to our Prophet. He was the hajj emir and the governor of Mecca and for a short time the governor of Medina during the time of Ali (R.A.) and he was from the immigrants. In the Umayyad period, he participated to Khorasan expedition and he was martyred in the conquest of Samarkand.

Abu Ayyub al-Ansari (R.A.) hosted Hz. Prophet (S.A.W.) in his house when He immigrated to Medina and he was also His relative. He participated to all of the expeditions during Hz. Prophet (S.A.W.) period and he was his bodyguard. He also participated to some expeditions during four caliphs; Hz. Ali (R.A.) once left him in Medina as deputy. He died in the siege of Istanbul and he was from ansar.

Both companions had the common features like being very close to Hz. Prophet (S.A.W.) and four caliphs, their duties during Hz. Ali (R.A.) period, their participations to conquest expeditions during Umayyad period. There are companions' influences and special places in Turks' accepting Islam and their serving. Samarkand and Istanbul, where they participated in the conquest expeditions, are cities with geostrategic and geopolitical features, leading global developments and changes in terms of Islamic Civilization and Muslim-Turkish States. Samarkand is among the central cities in the adoption of Islam by the Turks, the spread of Islam, the development of civilization, and the establishment of many Muslim Turkish States. Besides, Istanbul which was conquered by the sign of the Prophet Muhammad (S.A.W.) is a city constituting the pinnacle of the Turks' service to Islam, and changing the era. There are connections between two pioneer exemplary companions and two cities changing the flow of the history.

Many Companions are buried on earth. However, the cities where these two companions were buried with their last expeditions have become the center of the strategic and global developments changing the world history.

**Keywords:** Companion, Conquest, Pioneer, Istanbul, Samarkand, Global, Strategic.

---

**ДВА ВЕДУЩИХ СПОДВИЖНИКА: КУСАМ БИН АББОС И АБУ АЮБ  
АЛЬ-АНСАРИ И ДВА ВАЖНЫХ ГОРОДА: САМАРКАНД И СТАМБУЛ**

**Доктор Кемал Явуз АТАМАН,**  
Университет Карабук,  
Факультет экономики и управления,  
E-mail: kemal.ataman59@gmail.com

## АННОТАЦИЯ

Ислам широко распространился благодаря путешествиям и завоеваниям сподвижников. Примечательно, что большинство сподвижников погибло за пределами Аравии. Ретроспективно видно, что ведущие соратники были вовлечены в стратегические и глобальные завоевания. Два ведущих сподвижника, которые были близки к Пророку (мир ему и благословение), и два важных города, в завоевании которых они участвовали, изменили ход истории.

Кусам бин Аббас (да будет доволен им Аллах) был сыном Хазрата Аббаса (да будет доволен им Аллах), дядей Пророка (мир ему и благославение) и был очень близок к Пророку.

Дядя Пророка (мир ему и благословение) был сыном Хазрата Аббаса (да будет доволен им Аллах) и был очень близок к Пророку. Он был одним из эмигрантов и служил в Мекке во время правления Хазрата Али (да будет доволен им Аллах), затем короткое время в Медине, а также был эмиром паломничества. В период правления уммавитов он участвовал в походе на Хорасан и принял мученическую смерть при завоевании Самарканда.

Абу Айюб аль-Ансари (да будет доволен им Аллах) является одним из приближённым и родственников нашего Пророка Мухаммада (мир ему и благословение). Когда наш Пророк (мир ему и благословение) переселился в Медину, он какое-то время жил в гостях у этого человека. Абу Айюб участвовал во всех войнах во времена Пророка, а также охранял его. Во времена Чахориаров он участвовал в различных войнах, и в одном из них Хазрат Али (да будет доволен им Аллах) оставил его своим представителем в Медине. Абу Айюб аль-Ансари (да будет доволен им Аллах) умирает во время осады Стамбула. Эти два сподвижника имеют общую характеристику с их близостью к Пророку и сподвижникам, их служением во времена Хазрата Али (да будет доволен им Аллах) и их участием в завоеваниях во времена уммавитов. Города Самарканд и Стамбул, которые они участвовали в завоевании, имеют геостратегические и геополитические характеристики и являются городами, которые привели к глобальному росту и изменениям с точки зрения исламской культуры и мусульманско-турецких государств.

Конечно, сподвижники играют важную роль и влияние в принятии тюрками ислама и служении ему. Самарканд был одним из центральных городов в принятии тюрками ислама, развитии исламской культуры и создании мусульманских тюркских государств.

Стамбул — город, который был завоеван в тени пророчеств и хороших новостей Мухаммеда, и изменил историю своим завоеванием в то время, когда служение турок исламу достигло своего пика. Эти два компаньона и два города произвели исторические изменения. На земле много могил товарищей. Но эти города, где похоронены эти два ведущих сподвижника, были центром стратегических, глобальных событий.

**Ключевые слова:** сподвижник, завоевание, Стамбул, Самарканд, стратегия.

---

## КИРИШ

Ислом дини ҳазрати Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.)нинг ва саҳобаларнинг фатҳ юришлари, таблиғ фаолиятлари билан қисқа вақтда кенг минтақаларга ёйилган. Ҳазрати Абу Бакр (р.а.) халифалик вазифасини адо этаркан Расулulloхнинг йўлидан юриб, ғазотларни давом эттирган (Аҳаг, 2017: 2043). Бу фатҳлар бошқа халифалар даврида ҳам давом этган. Саҳобаларнинг фатҳ ва таблиғ стратегияларида Куръон ва суннат ўлчовларига

риоя қилиш дастлабки халифалар пайтида яққол намоён бўлган. Сосоний ва Византия ўлкаларида қозонилган ғалабалар, уммавийлар даврида туркийлар яшайдиган минтақаларга қадар етиб бориб, тарихнинг ривожини ўзгартирган (Hatalmış, 2019: 425). Туркийлар Ислом динини қабул қилгач, мусулмон-турк давлатлари тарихда муҳим ўрин эгаллай бошладилар. Улар ҳукмрон бўлган ўлкаларда Ислом маданияти анча ривожланиб, дунёга ўз таъсирини ўтказган.

Шарқ ва ғарб горизонтида икки нукта, икки шаҳар, икки минтақа диққатга сазовордир. Мовароуннаҳрда жойлашган Самарқанд ҳамда асрлар мобайнида усмонлиларнинг пойтахти бўлиб келган Истанбул - жаҳон тарихининг энг муҳим марказларидан бўлган. Мазкур икки шаҳарнинг фатҳ этилишида қатнашиб, шаҳид бўлган икки саҳобанинг рамзи Ислом тарихида муҳим ўрин тутиб келган. Қусам бин Аббос (р.а.) ва Абу Айюб ал Ансорий (р.а.) ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.)га яқин саҳобалардан бўлиб, улар Қуръон ва суннатга маҳкам риоя қилишган. Саодат асрида масъулиятли вазифаларни зиммаларига олишган. Чунончи, оддий аскар нафари сифатида жангларда иштирок этиб, бошқаларга намуна бўлишган. Улар дафн этилган минтақалар – Самарқанд ва Истанбул - туркийларнинг мусулмонликда, ҳукмронликда ва Исломга катта хизмат кўрсатилишида сабаб бўлган (Hatalmış, 2019: 418), асрлар давомида Ислом маданиятининг ривожланишига манба бўлиб келган тарихий марказлардир. Бу икки шаҳар орқали Ислом дини атрофдаги ўлка ва жамиятларга кенг тарқалиб, мусулмон давлат ва жамиятлар тараққий топганлар. Бунда Истанбулнинг алоҳида ўрни бор, чунки у ҳазрати Муҳаммад (с.а.в.)нинг башорат муждасига эришган.

Тарихга назар соладиган бўлсак аён бўладики, соф, содда, самимий бўлган иймон аҳлининг холис ниятлари илоҳий иззат-икромлар билан тақдирланган. Содиқ саҳобалар Пайғамбар (а.с.)дан олган ишоратлари билан ер юзининг кўплаб нуқталарига етиб борганлар. Улар Исломнинг глобаллашуви, ёйилиши, танилиши ва эътироф этилишида катта ҳисса қўшганлар (Şulul, 2020: 140). Улар вафот этганларидан кейин у жойлар ободонлаштирилиб, марказ ҳолига келган. Шу жиҳатдан улар Исломнинг дунё микёсида ўрнатилган энг муҳим шахсиятларидан ҳисобланади.

#### **Фатҳ доирасида таблиғ ва саҳобаи киром:**

Ислом инсониятга келган охирги ҳақ дин, ҳазрати Муҳаммад (с.а.в.) эса сўнгги ҳақ пайғамбардир. Ислом инсониятнинг саодати учун нозил қилинган бўлиб, иймон келтирганларнинг ушбу динга эътиқод қилиб, унга мувофиқ яшаш, уни бошқаларга ҳам етказишлари керак (Bünyamin, 2021).

“Эй Расул! Раббингдан сизга нозил қилинган нарсани (тўлиқ) етказинг (билдиринг). Агар буни қилмасангиз, Унинг рисолатини (элчиликни) бажо келтирмаган бўлурсиз. Аллоҳ сизни инсонлардан сақлагайдир. Шубҳасиз, Аллоҳ кофирлар қавмини тўғри йўлга эриштирмас” (Bünyamin, 2021).

Бу ояти карима таблиғ борасида етакчи манба ҳисобланади. Бундан ташқари Расулуллоҳ (с.а.в.) Видо хутбасида дейдиларки:

“Эй инсонлар! Билмайман, балки бу санадан кейин сиз билан бу ерда яна бир бор бирга бўлолмасман. Бугун сўзимни эшитиб, яхшилаб тушуниб етганларга Аллоҳнинг раҳмати бўлсин! Ушбу сўзимни бу ерда бўлганлар эшитмаганларга етказсин. Балки етказилган киши бу ерда эшитгандан кўра яхшироқ тушунар ва итоат этар. Эй инсонлар! Билинги, Раббингиз бирдир, отангиз ҳам бирдир! Барча инсонлар Одам (а.с.)дан тарқалган, Одам эса тупроқдан яратилгандир. Арабнинг араб бўлмагандан, араб

бўлмаганнинг арабдан, оқ танлининг қора танлидан, қора танлининг оқ танлидан ҳеч қандай устунлиги йўқдир. Аллоҳ ҳузурида устунлик фақат тақво биландир”(Bünyamin, 2021).

Пайғамбаримиз (с.а.в.)нинг “Эй инсонлар!” деб хитоб қилишлари ва “Ушбу сўзимни бу ердагилар келмаганларга етказсин. Балки етказилган киши бу ерда эшитгандан кўра яхшироқ тушунар ва итоат этар”, ифодаси таблиғнинг тамали, омонати ва ишоратидир. Барча инсонлар у зотнинг уммати, замон эса қиёматга қадар унинг замонидир (Соҳаб, 2021).

Расулуллоҳ хутбанинг охирида: “Эй инсонлар! Эртага сизлардан мен ҳақимда сўрайдилар, шунда нима дейсизлар?”, деганларида саҳобалар: “Аллоҳнинг рисолатини бизга етказганингизга, вазифангизни бажарганингизга, насихат қилганингизга гувоҳлик берамиз” дедилар. Шунда у зот (с.а.в.) кўрсаткич бармоқларини осмонга қаратдилар, кейин одамларга қаратиб: “Эй Аллоҳим, Ўзинг гувоҳ бўл!”, деб уч марта такрорладилар. Шундай қилиб таблиғнинг моҳияти белгиб қўйилди.

Пайғамбар алайҳиссалом турли жамиятларнинг йўлбошчиларига, қирол ва султонларга элчилар жўнатганлар. Элчилар ҳануз дипломатик кафолат бўлмаслигига қарамай, кўрқмасдан берилган манзилларга етиб борганлар. Баъзи жойларда бу даъватдан ижобий жавоб олишган, баъзи жойларда эса шаҳид бўлишган (Şulul, 2020: 141). Исломнинг таблиғ мақсадлари ва қоидалари орасида Аллоҳ ва Расулига иймон келтиришга чақирик билан бирга зулмни бартараф этиш, адолатни ўрнатиш ҳам бор. Қуръони карим ер юзини обод ва ислоҳ этишни, фасод ва зулмни кўтаришни мусулмонларнинг зиммасига юклаган (Kulat, 2001: 14). Сосоний қўмондони Рустамнинг ҳузурига борган элчилардан “Сени нима бу ёққа келтирди?”, деган саволига Рибъи Амир (р.а.) шундай жавоб беради: “Аллоҳ бизни инсонларни бандага бандалик қилишдан қутқариб, Аллоҳга бандалик қилиш мақомига юксалтириш учун юборди...”, (Akgün, 2013: 28) деб жавоб беради.

Чаҳорёрлар даврида фатҳ ва таблиғ стратегияси Қуръони карим ва Пайғамбар (с.а.в.) билдирган таблиғ ишоратларига кўра тузилган. Ҳазрати Абу Бакр (р.а.) халифа бўлгач, бу ишоратга кўра фатҳ ҳаракатларини бошлатган. Албатта, бунинг турли сабаблари бор эди (Azimli, 2005: 180). Ҳазрати Абу Бакр "ички нотинчликлар (ғалаён) бор экан, нима учун ташқи жанг сафарларига чиқяпти” деганларга қарши қаттиқ туриб: “Ёлғиз ўзим қолсам ҳам Расулуллоҳнинг амрини адо этаман”, деб ўз қатъиятини кўрсатган (Аҳаг, 2017: 2043). Ҳазрати Абу Бакр (р.а.) Сурия ғазотига кетаётиб Мадина аҳолисига хитоб этаркан:

“Аллоҳ ер юзидан куфрни йўқ қилиш учун шон-шарафингизни ғазот билан юксалтирди. Қўл остидагиларни зулм билан бошқараётган византиялик румларни итоатимиз остига олиш учун тайёрланинглари!” (Аҳаг, 2017: 2043) дейди. Бошқа бир нуткида эса: “Аллоҳнинг изни билан ҳеч ким ғазотни тарк қилмайди. Чунки уни тарк этганлар хор бўлганлар”, дея мусулмонларга таблиғ фаолиятини тарк этмаслигини баён этган (Аҳаг, 2017: 2046).

Саҳобанинг улуғларидан Абдуллоҳ бин Масъуд (р.а.): “Агар Абу Бакр бўлмаганда эди биз ҳалок бўлар эдик. У бизни араб вилоятларига сафарга чиқиш йўлида бирлаштирди”, (Аҳаг, 2017: 2048) деган.

Саҳобалар ғазотда иштирок этишни “Аллоҳнинг динини ёйиш”, ибодат, бурч деб билганлар. Саҳобаларнинг кўпи бу ғазотлардан унвон, мансаб ва мақом кутмай кўнгилли бўлиб қатнашганлар. Улар фатҳ ҳаракатларини ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.)га итоат ва эргашиш деб билганлар. Яхшиликка буюриш, ёмонликдан қайтариш - ҳақ дин узра жўнатилган Пайғамбарнинг йўли ва суннатидир. Ер юзида Аллоҳ учун тоат-ибодатга мувофиқ тартиб ўрнатиш мўминларнинг вазифасидир. Хужум қилган босқинчилар,

ахдлашувларни бузган қавм ва давлатларга ҳам қарши сафарга чиқилган. Ҳазрати Пайғамбар Византия ва сосонийларни фатҳ этишга кўрсатма берган эдилар (Küçüktaşçı, 2021). Мазлумни золимдан, дунёни зулм ва фасоддан кутқариш мусулмонларнинг масъулиятидир. Шу боис саҳобалар баробарликни, адолатни, ахлоқий тартибни таъминлаш мақсадида ғазотлар қилиб, кўплаб минтақаларга етиб борганлар (Şulul, 2020: 141).

Бу борада саҳобаларнинг энг муҳим сифатлардан бири – намуна бўлишлари, куч-қудрати, тажрибаси, ахлоқи ва салоҳиятидир. Олдига қўйган ғоялари йўлида ўз кадриятларни ўзлаштириб, эътиқодларини тўлиқ яшаганлар ҳамда ўрнатилган шахсият сифатида инсонларнинг севгисини, ҳурмат-эътиборини қозонганлар.

Ҳазрати Умар (р.а.) фатҳ ва таблиғ фаолиятларида вақти-вақти билан мақсадга йўналтирувчи тартиб-тузатишлар, янгиланишлар қилган (Azimli, 2005: 182). Сосонийларнинг ағдарилиши, Византиянинг турли жангларида мусулмонларга енгилиши Исломнинг кенг диёрларга ёйилишига замин яратди (Azimli, 2005: 183). Ҳазрати Усмон (р.а.) даврида ҳам фатҳлар давом этган, фақат ички низолар туфайли муваффақиятсизликка учраган. Ҳазрати Али (р.а.) даврида эса фатҳлар бир муддат тўхтаб қолган (Hatalmış, 2019: 428). Уммавийлар замонида фатҳ фаолиятлари кенг ҳудудларгача етиб бориб, давомийлик касб этган (Akyürek, 2013: 87). Мазкур даврда Қутайба бин Муслим, Умар бин Абдулазиз каби тарихий шахсиятлар Хуросон, Туркистон фатҳлари билан туркийларнинг Исломни қабул этишида жуда таъсирли ишлар қилганлар (Akyürek, 2013: 106).

Қусам бин Аббос уммавийлар даврида Самарқанд юришида қатнашиб, ўша ерда шаҳид бўлган (Kurt, 1999: 572). Истанбулга қилинган фатҳ сафарлари ҳам уммавийлар даврида бошланган ва давом этган. Чунончи Айюб ал Ансорий ҳам бу ғазотда шаҳид бўлган (Ensari Kara, 2010: 50).

Исломнинг ёйилиши ва бардавомлиги жиҳатидан дастлабки даврда биринчи авлод мусулмонлар, саҳоба ва тобеъинлар борган минтақаларда яшовчиларнинг кўпчилиги кенг миқёсда Исломни қабул қилганлар (Sönmez, 2011: 295). Бугунги Ислом жуғрофиясининг ҳудудлари деярли саҳобаларнинг фатҳ ҳаракатлари билан чизилган.

Бу минтақалардан ташқари яна кўплаб фатҳлар Ислом давлатлари томонидан амалга оширилган бўлса-да, ҳукмронлик остига олинган ўлкаларнинг аҳолисини бир хил даражада мусулмон бўлишини таъминлай олинмаган. Усмонли давлати узок вақт Оврупада ҳукмронлик қилганига қарамай, аҳолининг асосий қисми Исломни қабул қилмаган (Sönmez, 2011: 295).

Саҳобаларнинг энг муҳим даъват хусусиятлари - Пайғамбар (с.а.в.)нинг таблиғ хусусиятларини ўзлаштириб, у зотга боғланишларидир. “(Эй Расулим!) Инсонларни Раббингиз йўлига (диниға) ҳикмат билан ва гўзал насиҳатлар билан даъват қилинг. Улар билан энг гўзал услубда (синдирмай, ғаблантирмай) мужодала қилинг” (Наҳл сураси, 125-оят). Динда мажбурлаш йўқ лекин ташвиқ қилиш бордир. Ширин тил, раҳм-шафқат, иффат, омонат каби юксак ахлоқий тамойиллар билан безанган саҳобалар ҳаққоний равишда таблиғни адо этганлар. Ушбу ўлчовлар айна пайтда таблиғнинг тамалидир (Karakuş, 2020: 275).

Қусам бин Аббос бин Абдулмутталиб ал Ҳошимий (р.а.) (ваф. х.57/м.676).

Қусам бин Аббос - Пайғамбаримиз Муҳаммад (с.а.в.)нинг амакилари ҳазрати Аббос (р.а.)нинг ўғлидир. Оналари - Уммул Фазл Лубоба бинт Хорис ал Ҳилолийя (р.а.) бўлиб,

ҳазрати Маймуна (р.а.)нинг синглиси эди. У ҳазрати Ҳадича (р.а.)нинг яқин дугонаси бўлиб, Ҳадича онамиздан сўнг мусулмонликни қабул қилган.

Қусам бин Аббос (р.а.) ҳазрати Ҳусайн (р.а.) билан эмиқдошдир. Расулуллоҳ (с.а.в.)нинг отларининг эгарига ўтиргани учун “Ридфун набий”, “Радифун набий”, “Радифу Расулуллоҳ”, “Ридфу Расулуллоҳ”, “Мурдифу” каби унвонлар билан машҳур бўлган. Ривоятларга кўра, Қусам бин Аббос Пайғамбаримизга энг кўп ўхшаш бўлган саҳобадир. Расулуллоҳни қабрга қўйиб, у зотга охиригиги теккан ва қабрдан энг охири чиққан киши бўлиб, ҳадис ровийларидандир. Ҳазрати Али (р.а.) даврида Маккада ва қисқа муддат Мадинада волий бўлган, ҳаж амирлигини қилган, фатволар берган (Şulul, 2020: 169).

Гўзал ахлоқ, одоб, тавозеъ, фазилат ва жўмардлиги билан машҳурдир. Муовия даврида Хуросон фатҳларига қатнашган (Şulul, 2020: 149). Қариб қолганига қарамай, Мовароуннаҳр юришига аскар сифатида қатнашиб, назокати, одоби ва камтарлиги билан қўмондоннинг ҳурмат-эътиборини қозонган. У ўзига нисбатан алоҳида эътибор кутмаган, ғанимат моллари тақсимланаётганда қўмондоннинг амри билан берилган ортиқча молни ҳам олмай, ҳамма қатори тенг тақсимланишини истаган. Самарқанд фатҳ қилиниши жараёнида шаҳар ҳали қўлга киритилмасдан аввал 677 йил қурбон байрами куни шаҳид бўлган (Hasan, 2013: 243). Самарқандда Шоҳи Зинда (тирик валий) сифатида билиниб, қабри атрофида тарихий, кўркамли бинолар, мадрасалар барпо қилинган. Туркистон ҳудудларида, Ўрта Осиёда маънавий нуфузга эгадир. Халқ ҳурмат-эҳтиром билан тилга олар, қабри доимо зиёратчиларга тўладир (Kurt, 2000: 565).

Ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.)га яқинлиги, Қуръон ва суннатга боғлиқлиги туфайли Исломнинг ёйилиши ва барқарорлашишида таъсири бўлган. Туркистон халқининг аҳли байт, саййидларга бўлган ҳурмат-эҳтироми, боғлиқлиги Қусам ибн Аббос сиймосида янада кучайди. Пайғамбар хонадонига оидлик ва мансублик туйғуси унинг соясида чуқур илдиз отди. Турли даврларда султон ва бекларнинг диққат марказида бўлган. Масалан, Амир Темур, Мирзо Улуғбек кўркамли бир мақбара қурдиришган, Бобурийлар асосчиси Бобуршоҳ эса унинг қабрига Мозоршоҳ номини берган. Буюк салжуқий султони Султон Санжар қабрининг атрофига Қусамийя мадрасасини қурдирган (Hasan, 2013: 244). Қабрининг атрофига темурийлар сулоласининг таниқли шахслари дафн қилинган. Унинг қабри меъморчиликда дунёдаги энг яхши некропол сифатида тавсифланган. Самарқандда умуман яшамаган бўлса-да, шаҳид бўлиб ўрнашган бу юртда инсонларнинг қалбидан жой олган. Қусам бин Аббос (р.а.) ва бошқа муҳожир саҳобаларнинг Қуръонга, суннатга, Пайғамбаримиз (с.а.в.)га, тўрт халифага боғлиқликлари минтақада мусулмон давлатларнинг ва Ислом маданиятининг илдиз отиши, муваффақияти ва ёйилишида катта таъсир кўрсатди (Şulul, 2020: 167). Бу таъсир асрлардан бери ҳанузгача давом этиб келмоқда. Хуросон, Мовароуннаҳрнинг таъсири Ҳиндистон, Кавказ, Болқон, Онадўли, Яқин Шарқ ва Шимолий Африкага етиб қадар борган. Бу минтақада ташкил топган ва бу ердан озикланган қорахонийлар, ғазнавийлар, сомонийлар, буюк салжуқийлар, хоразмшоҳлар, темурийлар, бобурийлар, мамлуклар, Онадўли салжуқийлари, усмонийлар каби мусулмон-турк давлатлари тарих ёзганлар. Тафсир, ҳадис, фикҳ, калом, тасаввуф каби исломий илмларда улуғ олимлар етишиб, асарлар қолдирган, мактаблар тузганлар. Яна астрономия, математика, тил, адабиёт, фалсафа, тарихнавислик каби ижтимоий фанларга оид тарихга олтин ҳарфлар билан битилган алломалар ва асарлар Ислом маданиятининг бу минтақадан инсониятга тухфаси бўлди (Ataman, 2020: 2975). Қусам бин Аббос (р.а.)нинг ва Ислом фотиҳларининг самимиятлари, ғайратлари самара бериб кўкариб яшнади.

Абу Айюб Холид бин Зайд бин Кулайб ал Ансорий (р.а.) (ваф. х.49/м.669)

Абу Айюб ал Ансорий (р.а.) ансорлар орасида илк мусулмон бўлганлардандир (Ensari Kara, 2010: 49). Пайғамбар Муҳаммад (с.а.в.) билан у зотнинг бобоси Абдулмутталибнинг онаси томонидан қариндошдирлар. Ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.) Мадинага келганларида туялари унинг уйи олдида тўхтаган эди. Айюб ал Ансорий пайғамбаримизни етти ой уйида меҳмон қилгани учун “Меҳмондори Расулуллоҳ” сифатида тилга олинган. Бу уй Исломдан таълим берилган муқаддас бир даргоҳ бўлган. Айюб ал Ансорий - Макканинг фатҳида, Бадр, Уҳуд ва бошқа барча ғазотларда Пайғамбаримизнинг ёнларида иштирок этган. Жангларда Пайғамбаримиз (с.а.в.)га зарар келмасин дея доимо ёнларида турар, ҳатто тунлари чодирларининг атрофида қўриқчилик қиларди. Ваҳий котиби, ҳадис ровийси бўлган, фатво ҳам берган. Ваҳий котиби бўлгани учун Қуръони карим оятларининг жамланишида хизмат кўрсатган. Мадинада волийлик, Масжиди Набавийда эса имомлик қилган ҳофиз, олим ва ориф бир зот бўлган. Ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.) у зотни Мусъаб бин Умайр (р.а.) билан охират биродари қилиб қўйганлар. Абу Айюб ал Ансорий ноҳақликларга чидаолмайдиган, тўғри деб билганини айтадиган бир характерга эга эди. Ниҳоятда жўмард бўлиб, ширин тили, табассумли чехраси, Қуръон қироати билан Мадинада кўпчиликнинг мусулмон бўлишига сабабчи бўлган. Ҳазрати Умар (р.а.) давридаги барча ғазотларга иштирок этиб, умри жангларда ўтган. Соғлиғи жойида бўлган ҳар бир киши Аллоҳ йўлидаги урушга қатнашиши керак, деб ҳисобларди. Кексайган пайтида ҳам ҳар йили бир сафарда иштирок этишга ғайрат қиларди. Миср, Сурия, Фаластин, Қибрис юришларига қатнашган, охириги ғазоти Истанбул қамали бўлган (Coşan, 2017: 65). Олим, амир сифатида таниқли бўлганига қарамай, ҳамма катори оддий навкар бўлиб ғазотларда қатнашган. Расулуллоҳ (с.а.в.)дан Истанбул фатҳида саҳобалардан бирининг шаҳид бўлишини эшитиб, бу хушхабарга ноил бўлиш учун Истанбул фатҳида иштирок этади. Қамал пайтида ҳасталаниб, вафот этса ўша ерга дафн қилинишини васият қилади. Вафотидан сўнг Язид бин Муовия унинг жанозасини ўқиб, қалъа яқинига дафн қилдиради (Algül, 2021). Баъзи тарихчиларга кўра Айюб ал Ансорий аввалги Истанбул сафарларига ҳам қатнашган. Қамал тугагач Византия императори унинг қабрини вайрон қилишини айтганида, Ислом кўшинининг кўмондони унга жавобан, агар шундай қилса мусулмон ҳудудларидаги черков, монастыр ва насронийларнинг ҳам зарар кўришини етказди. Шундан сўнг қабрни ҳимояси кафолатланиб, кейинчалик атрофи девор билан ўралган ва бу вақт мобайнида қабрига умуман тегилмаган. Ҳатто қабри насронийларнинг очарчилик даврларида зиёратгоҳ жойи бўлган. Истанбул эгаллангач, Окшамсиддин ҳазратлари томонидан қабри кашф этилади. Баъзи муаллифларга кўра, қабрнинг топилиши шаҳарни фатҳи қадар мўъжизавий ва муҳим аҳамиятга эга эди. Йиллар ўтиши билан атрофи текисланиб кетган қабрнинг атрофи кейинчалик яна ўраб қўйилган. Фотиҳ Султон Муҳаммадхон Абу Айюб ал Ансорийни “шаҳарни муҳофаза қилувчи валий” деб талқин қилинган (İnalçık, 2004: 310). Усмонли подшоҳларининг қилич тақиш маросимлари шайхулислом ва бошқа таниқли кишиларнинг иштироки билан Айюб Ансорийнинг макбараси олдида ўтказилган.

Ҳадиси шарифда Истанбулни фатҳ этилишининг башорат қилиниши, бу хушхабарга ноил бўлишни истаган саҳобалар ва уларнинг етакчиларидан Абу Айюб ал Ансорий (р.а.) тўксон ёш бўлишига қарамай бу ғазотга қатнашиши, Истанбул қалъасининг атрофига дафн этилишни васият қилиши эътиборга моликдир.



Уч қитъага очилиб, янги бир даврнинг бошланғичи ҳисобланган фатҳ – Айюб ал Ансорийнинг сиймоси билан безаниб, усмонийлар билан бирга асрлар давомида Ислом байроғининг уч қитъада ҳилпирашини таъминлади. Шунинг учун Айюб ал Ансорий ғарбда байроқлашган бир саҳоба сиймоси ҳисобланади. Усмонли ҳукмдорлиги исломий қоидаларни тизимлаштирган бир давлат бўлгани боис, саҳобаларнинг “Аллоҳнинг динини ёйиш” ғоясини асрлар давомида ташиган.

Самарқанд шаҳри ва аҳамияти

Ўзбекистон ҳудудида жойлашган Самарқанд шаҳри тарихда кўплаб давлатларнинг пойтахти бўлган. Геостратегик ва геосиёсий аҳамиятга эга бўлган шаҳар илм-фан, маданият ва санъат маркази бўлиб, савдо-сотиқда ҳам чорраҳа нуқтасида бўлган (Alyılmaz, 2002: 308).

Қусам бин Аббос (р.а.) шаҳид бўлган Самарқанд қамалидан олти йил ўтиб, уммавийларнинг Хуросон волийси Қутайба бин Муслим (р.а.) томонидан шаҳар фатҳ қилинади (Акуёрек, 2013: 97). Самарқанд Моваруннаҳрнинг бошқа минтақаларига қилинган фатҳ ҳаракатларида бир қароргоҳ вазиятида бўлган. Умар бин Абдулазизнинг уммавий султони бўлгани боис ҳамда таблиғ ҳайъатларининг таъсирида минтақада Исломни қабул қилганларнинг сони ортиб борган. Самарқанд нафақат Хитой, Эрон, Турк ўлкалари балки Ўрта аср Оврупосининг Шарқ ва Ғарб савдо қарвон йўли чорраҳасида жойлашган бўлиб, дунёнинг ҳар ўлкасидан савдогарлар келадиган жой эди. Шу боис Ўрта Осиё савдо йўлларининг марказий порти деб таърифланган (Aydınli, 2001: 321). Сомонийлар даврида пойтахт бўлиб, кўплаб олимлар етиштирган. Ипак йўли савдоси самарқандли савдогарларнинг қўлига ўтган. Қоғоз энг муҳим маҳсулотлардан бўлиб, Ислом жуғрофиясининг энг сифатли қоғози Самарқандда ишлаб чиқарилган. Бундан ташқари шаҳар тўқимачиликда ҳам ривожланган бўлиб, 150 тур ҳунармандчилик тармоғи мавжуд эди (Vurgun, 2016: 151). Нажмиддин Насафий “Уламои Самарқандий” асарида шаҳарда етишиб чиққан мингга яқин Ислом уламосини санаб ўтган. Имом Мотрудий, Доримий, Мирзо Улуғбек, Али Қушчи, Ибн Арабшоҳ каби кўплаб олимлар Самарқандда яшаганлар. Темурийлар даврида яшаган Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор (р.а.) ҳукумат билан бирга амалга оширган фаолиятлари орқали Самарқандни анча ривожлантирган. Алишер Навоийга кўра фақат Мовароуннаҳрда эмас, Хуросон, Ҳиндистон, Миср, Ироқ, Озарбайжон, Хитой ва Онадўлидаги султонлару амирларга ҳам Хожа Убайдуллоҳнинг мактублари кучли таъсир кўрсатган бўлиб, унинг тавсияларини бажаришган, ҳукмига эътироз билдиришмаган (Demir, 2016: 654). Турли даврларда қорахонийлар, буюк салжуқийлар, хоразмшоҳларнинг ҳукмронлиги остига бўлган Самарқанд, Мўғулларнинг босқинига, ишғолига, вайронагарчилигига дучор бўлади. Самарқанд ер билан яқсон қилинди. Сал кам бир аср давом этган бу ачинарли вазият Амир Темур Мовароуннаҳрда ҳукмронлик ўрнатиб, Самарқандни пойтахт қилгач ўзгаради (Қоҹак, 2019: 69). Темур кўплаб олимларни, ҳунармандларни, усталарни Самарқандга йиғади. У пойтахтни дунёнинг энг муҳим шаҳрига айлантирмоқчи бўлиб, бошқа ўлкалардан кўплаб олим, уста, меъмор, ҳунарманд ва алломаларни келтириб, ижтимоий тузилмани ўзгартиради. Бунинг натижасида Самарқанд юлдуз шаҳарга айланди. Самарқанд ва Бухоро Мовароуннаҳрда “эгизак (қўш) гавҳар шаҳар”, “Ислом гумбази”, “дунёдаги жаннатларнинг энг етакчиси” ва “Ислом оламининг ёрқин юлдузи” сифатида таърифланган (Kurt, 2000: 426).

Самарқанд турли диндаги, ҳар хил тилдаги ва турли этник миллатларни ўзида жамлаган шаҳар бўлиб, асосий қисми суғдлардан иборат эди. Кейин турклар, араблар, форслар бошқа дин ва миллатларга мансуб инсонлар истиқомат қилар эди. Буддизм,

зардуштийлик, монахаизм, насронийлик, яхудийлик, шомонизм, мажусийлик ва маздакийя каби эътиқодларни қамраган кўп маданиятли шаҳар бўлган. Тожик, ўзбек, қирғиз, араб, афғон, туркман ва эронликлар биргаликда яшашган (Vurgun, 2016: 148). Шаҳар халқи аҳли суннат бўлиб, назокатли, раҳм-шафқатли, бағрикенг ва ҳимматли бўлган. Жамият томонидан илм-фанга катта аҳамият берилар, маданиятли-маърифатли кишиларга ҳурмат кўрсатилар эди. Шаҳарга ҳанафий ва шофеъийлар чуқур таълим олишлари учун мадрасалар барпо қилинган.

Самарқанд жуда чиройли шаҳар бўлган. Темурийлар даврида савдо-сотик ва деҳқончилик анча ривожланган эди. Ҳатто шарқ ва ғарбдан келган сайёҳлар шаҳар ва аҳолисидан таъсирланганларини ёзганлар. Ҳар қандай тараққиётга очиқ, илм-фан, санъат, меъморчилик, маданият, савдо ва сиёсатда фаоллиги билан кўплаб жамият ва давлатларга таъсир кўрсатган.

Самарқандда Ислом дини бевосита саҳоба ва тобеъиндан ўрганилгани боис, Қуръон ва суннатга асосланган диний ҳаётнинг ривожланишига ва мустаҳкам асослар устида илдиз отишига сабаб бўлди. Хитой, Ҳиндистон, Хуросон, Эрон, Ироқ, Онадўли, Кавказ, Яқин Шарқ каби ўлкаларга борган дарвешу сўфийлар илм ва савдо йўли орқали Ислом ва тасаввуфий қарашларни етказдилар. Буюк ипак йўли - Исломни етказиш йўлига айланди. Самарқандда етишган мусулмон олимлар ва савдогарлар Хитой саройларига, Ҳиндистоннинг кўплаб вилоятларига Исломиятни етказдилар. Хитой императори Исломга кизиққанида Қутайба бин Муслим даврида унга бир ҳайъат жўнатилган, шу алфозда Исломият Хитойгача етиб борган (Акуёрек, 2013: 102).

Ислом дунёга кенг ёйилган пайтда ва мўғуллар босқинидан кейинги даврда Самарқанд иккинчи маротаба машҳур, марказий шаҳарга айланган. Давлатлар ва маданиятлар катта шаҳарларда барпо қилинади. Шаҳарнинг тарихи, географияси, ижтимоий тузилиши, жойлашуви – ўтроқ давлат ва маданиятнинг ривожланишида, ўсишида катта роль ўйнаган.

### **Истанбул шаҳри ва аҳамияти**

Истанбул ўзининг географик жойлашуви жихатидан қуруқлик ва денгизларни бир-бирига боғловчи, Осиё, Оврупа, Болқон ва Онадўли ўртасидаги алоқани, Қораденгиз ва Ўрта ер денгизи маданий минтақасини бир-бирига боғлаб турувчи жойдир. Византиянинг пойтахти бўлган Истанбул, ўрта асрнинг энг йирик, кўркамли шаҳри эди. Шарқий Рим империясининг пойтахти бўлиш билан бир қаторда, милодий 325 йил Изник кенгашидан кейин Истанбулнинг мавқеи ошгач, Византия империяси бир давлатга айланади. У айна пайтда Яқин Шарқ минтақасида ҳам фаол эди.

Исломият қарор топгач, мусулмонлар Византия қўшинлари билан юзма-юз келадилар. Истанбул ўша пайтда куфрнинг маркази эди (Соған, 2020: 36). Шу боис ҳазрати Муҳаммад (с.а.в.)нинг ишоратлари билан мусулмонлар у ерни фатҳ этишни мақсад қилганлар. Макканинг фатҳи Қуръони каримда, Истанбулнинг фатҳи эса ҳадиси шарифда муждаланган: “Қустантиния (Константинопол - Истанбул) албатта фатҳ қилинажак. У ернинг фотиҳи қандай ҳам яхши бошлиқ. Унинг қўшини қандай ҳам яхши қўшиндир” (Kulat, 2001: 13). Абдуллоҳ бин Бишр: “Маслама бин Абдилмалик (120-121/738) мени чақирди ва мендан бу ҳадисни сўради. Мен унга айтиб бердим. У ўша йили Константинополни фатҳ қилиш учун йўлга чиқди”.

Уммавийлар даврида беш йил мобайнида Истанбул бир неча маротаба қуршовга олинган (Ensari Kara, 2010: 29). Жами йигирма саккиз марта қамал қилинган. Бу даврда

Истанбулда Византия ҳукмдорлигининг фитналари, сарой ўйинлари ва ғалаёнлари авжига чиққан эди. Асрлар давомида усмонли ҳукмдорлигининг доимо кун тартибида турган Истанбул 1453 йил, ёш бўлишига қарамай мукаммал етишган қўмондон Фотиҳ Султон Муҳаммад ва қўшини томонидан муваффақият билан фатҳ этилади. Ҳадиси шариф тажалли қилиб, Фотиҳ Султон ва аскарлари бу хушхабарга ноил бўлишади. Истанбул фатҳи тарихнинг энг муҳим воқеаларидан ҳисобланиб, эски давр ёпилиб, янги бир давр-тарих очилади. Қора денгиз, Ўрта ер денгизи, Шарқ, Ғарб, Осиё, Оврупа, шимол ва жанубнинг ўлчови, мувозанати ўзгарган эди.

Бу фатҳ Ислом оламида катта бир шодликка, насроний оламида эса қайғу ва кўрқувга сабаб бўлади. Султон Фотиҳ тадбиқ этиб этник ва диний унсурларга қўлланилган ҳуқуқий тизим натижасида янги даврнинг эшиги очилади. Истанбул тарихнинг оқимини ўзгартирган эди.

Истанбул саҳобаларнинг ғайратли қадамлари билан қуршовга олинган ҳамда мусулмон араб қўшинлари томонидан ҳам бир неча марта қамалга олинган ва ниҳоят у ерни фатҳ этиш мусулмон турк қўшинларига насиб қилган (Соған, 2020: 28). Бу фатҳ ва зафар ҳикматларга тўладир. Истанбулни қўлга киритиш фақатгина ҳарбий эмас, балки бир маданият ва тизимнинг зафаридир (Genç, 1996: 98). Бу фатҳдан кейин усмонлилар салтанати ниҳоятда ривожланиб, ҳудудлари уч қитъага кенгайиб, Қора денгиз ва Ўрта ер денгизига чиқиш йўллари очилган эди. Оврупа Истанбул томонидан берилган қарор ва қадамларни кузатиб борган, чунки у ер дунё сиёсатининг энг муҳим пойтахти даражасига келган. Стратегик жойлашуви жиҳатидан ҳам асрлар давомида ўз таъсирини кўрсатиб келган. Бугунги кунда Истанбул дунёдаги саксон бешта мустақил ўлкага бевосита ва билвосита таъсир қиладиган бир пойтахтдир. Мусулмон, насроний ва яҳудийлар биргаликда яшайдиган йирик бир шаҳардир. Фотиҳ Султон Муҳаммадхон томонидан шаҳарга “Ислом мўл-кўл бўлган жой” маъносидаги “Исломбўл” номи берилган (İnalçık, 2021).

Истанбул турли маданиятлар бирга яшайдиган шаҳарнинг яқин тарихда ва дунёда энг муваффақиятли намунасидир. Ўзининг географик гўзаллиги, тарихий бойликлари ва кўп маданиятлилиги билан ҳанузгача дунёнинг энг гўзал, муҳим шаҳри ҳисобланади. Истанбул муҳим ва стратегик бир мавқеда экан ҳазрати Пайғамбарнинг ишорати, саҳобалар ва бошқа Ислом қўшинларининг сафарлари, Айюб ал Ансорий каби етакчи саҳобанинг вафоти, қалъанинг атрофига дафн қилиниши, худди байроқ ўрнатгандек йирик бир шаҳар ўлароқ тарихда ўрин олган.

Усмонли давлатининг қалбига айланган бу шаҳар – нафақатга Исломга, балки бутун инсониятга манфаат ва фойда касб этган. Зеро, мусулмонлар Византия империясининг зулми остида қолган маҳаллий аҳолини асоратдан қутқариб, қуфр ва истибдод маркази бўлган Константинополга янги ҳаёт олиб киришган. Турли эътиқодларда бўлишига қарамай маҳаллий аҳолининг бирлик-баробарлик ва тенгликда яшашни нафақат Византия, балки Болқонлар, Ўрта Шарқ, Африка ва Оврупага ўргатиб, Истанбулни кучли бир шаҳарга айлантирган.

Маданиятлар шаҳарларда барпо этилгани инобатга олинадиган бўлса, мусулмон турк маданиятининг ривожланишида Истанбулнинг катта таъсири бўлган. Ҳар даврда бўлган минг бир ҳийла-найранг, уруш, босқинчилик ва бошқа сабабларга қарамай, шаҳар мусулмонларнинг қўлида бўлиб келган. Хуллас, Истанбул - Абу Айюб ал Ансорий (р.а.) ва бошқа саҳобаларнинг қадамлари ва шаҳодатлари билан тарихда чуқур из қолдирган.

## ХУЛОСА

Бу икки улуғ саҳоба ва улар шаҳид бўлган бу икки шаҳар тарихдаги ўрни, таъсири жиҳатидан эътиборни жалб қилади.

Қусам бин Аббос (р.а.) муҳожирлардан, Айюб ал Ансорий (р.а.) эса ансорлардан эди. Ислом дини муҳожир ва ансор қардошлиги орқали ривожланиб, кенг тарқаб, ўрнашиб илдиз отди. Бу биродарлик Ислом етиб борган барча ўлкаларга ўрнатилди, биргаликда, ҳамжиҳатликда яшаш қонидаси юзага келди. Исломни етказувчилар ва уни қабул қилувчилар ўртасида муҳожир-ансор мувозанати, биродарлиги ҳамма жойда ўрнатилди. Бу икки саҳоба ҳазрати Пайғамбар (с.а.в.) ва аҳли байтига яқин бўлиб, у зотга эргашганлар, дуоларига мазҳар бўлганлар, ҳокимлик ва амирлик каби бошқарув вазифаларини ўтаганлар. Қуръон, ҳадис ва фикҳ илмидан хабардор, фатво берадиган илмий салоҳиятга эга кишилар бўлганлар. Улар кексайганларига қарамай ғазотларга султон, қўмондон сифатида эмас, оддий аскар бўлиб иштирок этганлар. Улар орзу қилган шаҳарнинг фатҳ этилишини кўролмай, камал пайтида шаҳид бўлиб, шаҳар қалъаси остида дафн этилганлар. Натижада шаҳарларнинг тарихий оқимини ўзгартириб юборганлар. Аллоҳ уларга шу диёрларнинг фатҳини ва Исломга хизмат қилишни насиб этди. Харитадан қараганда саҳобанинг бири шарқда - Самарқандда, наригиси эса ғарбда – Истанбулда бўлиб, рамзий тус олган.

Бу саҳобалар Пайғамбаримизга садоқатлари боис ғазотларда иштирок этишган. Уларнинг ягона мақсади - Аллоҳнинг динини ёйиш, яхшиликка буюриш, ёмонликдан қайтариш бўлган (Güler, 2006: 14). Улар салтанат, мол-мулк, мақом-мартаба ортидан чопмаганлар. Улар охир-оқибат тупроққа айланиб кетишларини яхши билишар, кўзланган шаҳарларнинг фатҳ этилиб этилмаслигини ҳам аниқ билишмас эди. Балки ҳикмати ҳам шундадир. Аллоҳ таоло розилиги учун беғараз қилинган саъй-ҳаракатлар уруғга айланиб, улар ётган тупроқлар яшнаб кўкариб, Исломнинг энг муҳим марказий шаҳарлари ва минтақаларига айланган.

Бу икки саҳоба ўрнатган шахсиятли, бой тажрибага эга ва ўзини иршодга бағишлаган кишилар бўлишган. Ўтмишлари пок, тоза бўлгани учун жамиятдаги таъсирлари зиёда бўлган. Атрофидагиларнинг ҳурмат-эътиромига сазовор бўлганлар. Зеро, таблиғ аҳлининг тоза бир ўтмишга эга бўлишлари Қуръони каримда ҳам таъкидланган (Güler, 2006: 14).

Бу икки саҳоба тақводор, жўмард, фидокор, жасур, одоб-ахлоқи, комил, Ҳақни гапирувчи, ноҳақликка қарши курашда пайғамбарларга издош бўлганлар. Зеро, барча мусулмонлар шу сифатлар билан безаниши керак (Sönmez, 2011: 289).

Истанбул фатҳ қилиниши жараёнида нақшбандий тариқатининг аҳрория тармоғи асосчиси Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор (р.а.) ҳазратлари Самарқанддан туриб маънавий ёрдам кўрсатгани учун Фотиҳ Султон Муҳаммадхон у зотга ҳадялар жўнатгани тарихда қайд қилинган. Фатҳдан аввал ҳам Убайдуллоҳ Аҳрор ҳазратларининг халифалари усмонлилар наздида таъсирга эга эдилар (Кош, 2005: 216). Самарқанд ва Истанбул орасида эътиборни жалб қилган муҳим, ажойиб, ҳикматли бир алоқанинг борлигини кузатиш мумкин.

Бошқа бир муҳим нуқта шундаки, бу икки саҳоба туркий давлатларнинг Исломга хизмат қилишларига васила бўлганлар. Улар ҳурматга сазовор, ўрнатилган, идеал шахсиятлар сифатида туркийларнинг қалбидан жой олганлар. Қусам бин Аббос (р.а.) туркийларнинг Исломни қабул қилишларида етакчилик қилган саҳоба қўшинларининг илғорларидан эди.

Айюб ал Ансорий (р.а.) эса турклар мусулмон сифатида асос солган, ривожланиб, тараққий топиб, узоқ муддат давом этган усмонли давлатининг пойтахтидан жой олган етакчи саҳоба эди.

Бу икки шаҳар бири Шарқда, бири Ғарбда илм, ирфон, сиёсат, маданият маркази эди. Мўғуллар Самарқандни ишғол қилган даврни ҳисобга олмаганда, бу шаҳарлар доимо Ислом диёри бўлиб келган. Мўғуллар ҳам кейинчалик мусулмон бўлганлар. Самарқанд ва Истанбул мусулмон жамият ва давлатларнинг ўсишида, Ислом маданиятининг ривожланишида асосий марказда бўлган.

Бу саҳобалар ётган мазкур икки шаҳар – Ислом олами ва инсоният учун улуғ бир мерос ҳисобланади. Глобаллашув асрининг мусулмонларига улуғ саҳобалардан қолган бир мерос, муҳим бир вазифа, ибратли бир ҳаёт йўли бор: Аллоҳнинг номини ёйиш, ер юзини меҳр-муҳаббат билан ислоҳ айлаб, зулм, фисқу фасодни йўқ қилиш, илоҳий ҳақиқатларни дунёнинг ҳар бир бурчагига етказиш, бу йўлда ғайрат билан ҳаракат қилишдир.

### **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Açar, Cafer. “Dört Halife Dönemi Fetihlerinin Arka Planına Dair Bazı Mülâhazaları”. İnsan ve Toplum Bilimleri Araştırmaları Dergisi 6/3 (2017), 2038-2057.
2. Akgün, Hüseyin. “Sahâbe Coğrafyasının Oluşumu ve Sonuçları”. İslâm Medeniyetinin Kurucu Nesli Sahâbe–Sahâbe Kimliği ve Algısı–Tartışmalı İlmi Toplantı 27/28 (Nisan 2013), 1-28.
3. Akyürek, Yunus. “Emevîler Dönemi Fetih Politikası ve Mâverâünnehir’in Fethi”. Uludağ Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi 22/1 (Haziran 2013), 85-106.
4. Algül, Hüseyin. “Ebû Eyyûb El-Ensârî”, TDV İslâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/ebu-eyyub-el-ensari> (17.06.2021).
5. Alyılmaz, Cengiz. “Eski Türk Şehirleri ve Semerkant”. A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi c/20 (2002), 308.
6. Ataman, Kemal Yavuz. “Maveraünnehir’de İslam Medeniyeti Üzerine Küresel Bir Analiz”. İnsan ve Toplum Bilimleri Dergisi 9/3 (2020), 2962/2977.
7. Aydınli, Osman. Fethinden Samanilerin yıkılışına kadar Semerkant tarihi. İstanbul: Marmara Üniversitesi, Sosyal Bilimler Enstitüsü, Yayımlanmamış doktora tezi, 2001.
8. Azimli, Mehmet. “Hulefâ-İ Râşidîn Döneminde Gerçekleşen İlk Fetihlerin Sebepleri Üzerine Bazı Değerlendirmeler”. İstem 3/6 (2005), 177 – 193.
9. Coşan, Mahmud Es’ad. “Hz. Peygamber (s.a.v.)’in Özellikleri”. İskenderpaşa. Erişim 10.06.2021. <http://www.iskenderpasa.com/D0806A49-B171-477E-A588-B7AC75BA3BA6.aspx>
10. Coşan, Mahmud Es’ad. İstanbul’un Fethi ve Fatih. İstanbul: Server Yayınları, 7.Basım, 2020.
11. Coşan, Mahmud Es’ad. Tarihî ve Tasavvufî Şahsiyetler. İstanbul: Server Yayınları, 5.Basım, 2017.
12. Demir, Cengiz. “Baburnâme’de Hoca Ubeydullah Ahrar”. Uluslararası Türkçe Edebiyat Kültür Eğitim Dergisi 5/2 (2016), 651-660.
13. Ensari Kara, Hatice Fahrunnisa. “Tarihi İslam’ın Yardımcıları Ensariler ve Kutsal Belde Eyüb’un Sultanı Hz. Halid b. Zeyd Ebu Eyyub el-Ensar”. Kültürü Sanatıyla Eyup Sultan Sempozyumu, XI, Şehir ve Kutsallık. ed. İrfan Çalışkan. 28-63. İstanbul: Eyüp Sultan Belediyesi Yayınları, 2010.

14. Erul, Bünyamin. “Vedâ Hutbesi”, TDV İslâm Ansiklopedisi, <https://islamansiklopedisi.org.tr/veda-hutbesi> (17.06.2021).
15. Genç, Mehmet. “Neden Fetih?”, I. Uluslararası İstanbul'un Fethi Sempozyumu. İstanbul: İstanbul Büyükşehir Belediyesi Kültür İşleri Daire Başkanlığı Yayınları, 1996, 96-98.
16. Güler, Zekeriya. “Tebliğin Mahiyeti ve Sınırları”, Kutlu Doğum İslam’ın Güncel Sunumu 2003, Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları 2006, 10-16.
17. Hasan, Nadirhan. “Sahabe Kusem Bin Abbas’ın Kabri ve Semerkant Maneviyatının Oluşumu Katkıları”. Adıyaman Safvan Bin. Muattal ve Ahlak Sempozyumu, ed. Candemir Dogan Adıyaman: Bildiriler Kitabı 15 -16 -17 Şubat 2013.
18. Hatalmış, Ali. “Sahabîlerin Türkleri Tanımları ve İlişkileri”. Çukurova Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi 19/2 (2019), 418-440.
19. İnalçık, Halil. İstanbul: Bir İslam Şehri. çev. İbrahim KALIN, Marife, 2004.
20. İnalçık, Halil. “İstanbul”. Türkiye Diyanet Vakfı İslâm Ansiklopedisi. Erişim 10.06.2021. <https://islamansiklopedisi.org.tr/istanbul#3-turk-devri>
21. Karakuş, Abdulkadir. “Hz. Peygamber’in Tebliğ Dili ve Bunun Kur’ânî Temelleri”. Tefsir Araştırmaları Dergisi 4/2 (2020), 267-283.
22. Koç, Mustafa. “16. Yy Osmanlı Coğrafyasında Karanlıkta Kalmış Nakşi-Ahrarî, Yesevi ve Kübrevi Şeyhleri”. Kutadgubilig Felsefe·Bilim Araştırmaları Dergisi C/7 (Man 2005), 213-254.
23. Koçak, Muhammed Emin. “Timurlu Medeniyetine Örnek Bir Şehir: Semerkant (1370-1405)”. Ausbd 2/4 (2019), 67-76.
24. Kulat, Mehmet Ali. “İstanbul’un Fethini Müjdeleyen Hadisin Değerlendirilmesi”. Diyanet Dergisi 37/2 (2001), 5-24.
25. Kurt, Hasan. Orta Asya’da Peygamber Ailesinden Bir Sahabe Kusem B. Abbas, Ankara: 1999, 565-579.
26. Kurt, Hasan. “Orta Çağ Başarısı Buhara”. Ankara Üniversitesi İlahiyat Fakültesi Dergisi 41/1 (Nisan 2000), 425-471.
27. Küçükaşcı, Mustafa Sabri. “Fetih Hadisi ve Müslümanların İstanbul Kuşatmaları”. İstanbultarihi. ist. Erişim 10. 06. 2021. <https://istanbultarihi.ist/54-fetih-hadisi-ve-muslimanlarin-istanbul-kusatmalari>.
28. Sönmez, Mustafa. “Peygamberlerin Tebliğ Sıfatı”Ve Bu Sıfatın Arka Planını Oluşturmada Diğer Sıfatların Rolü”. Elektronik Sosyal Bilimler Dergisi 10/35 (2011), 277-298.
29. Şulul, Kasım. “Horasan ve Mâverâünnehir’le Münasebeti Bulunan Sahabîler”. Siyer Araştırmaları Dergisi 8 (2020), 139-168.
30. Vurgun, Seda Yılmaz. “Buhara Emirliğinin İki Önemli Şehri: Buhara ve Semerkand”. Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi / Journal of Turkish History Researches 1/1 (Fall 2016), 148-151.

## **FOLKLORSHUNOSLIK**

### **O‘ZBEK XALQ DOSTONLARI LEKSIKASINING TARIXIY ASOSLARI**

**Ahmad RAHIMOV,**  
SamDCHTI dotsenti

#### **ANNOTATSIYA**

Xalq og‘zaki ijodi namunalari turkiy xalqlarning mushtarak nomoddiy madaniy merosi hisoblanadi. Ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik tadqiq metodlari bilan tahlil olib boradigan folklorshunos ilmi uchun xalq dostonlari matnini lisoniy tadqiq qilish adabiy til va uning tarixiy tadrijiy bosqichlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Ergash Jumanbulbul o‘g‘li tomonidan kuylangan “Xushkeldi”, “Qunduz bilan Yulduz” kabi ishqiy dostonlarda qo‘llanilgan ayrim leksik birliklar qiyosiy-tarixiy jihatdan tadqiq qilingan. Ya’ni, qadimgi turkiy so‘zlar hamda tilimiz taraqqiyotining keyingi bosqichlarida o‘zlashgan forsiy va arabiy so‘zlar hozirgi adabiy til materiallari bilan taqqoslangan. Tadqiqotda ilmiy-nazariy manbalar bilan birga “Qadimgi turkiy so‘zlar lug‘ati” kabi leksikografik matndan ham keng foydalanilgan.

**Kalit so‘zlar:** folklor, xalq dostonlari, til bilimi, eski so‘z, eskirgan qatlam, o‘zlashgan so‘zlar, qadimgi turkiy asos, lug‘at.

---

### **ИСТОРИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ЛЕКСИКИ УЗБЕКСКОГО НАРОДНОГО ЭПОСА**

**Ахмад РАХИМОВ,**  
доцент, СамГИИЯ

#### **АННОТАЦИЯ**

Образцы народного творчества являются общим нематериальным культурным наследием тюркских народов. Лингвистическое исследование текста народных былин имеет большое значение в изучении литературного языка и его исторических этапов для фольклористской науки, анализирующей как литературоведческие, так и лингвистические методы исследования. В данной статье со сравнительно-исторической точки зрения исследуются некоторые лексические единицы, используемые в романтических эпосах, таких как “Хушкелди” и “Кундуз биля Юлдуз”, воспетых сыном Эргаша Джуманбюльбюля. То есть древнетюркские слова и персидские и арабские слова, приобретенные на более поздних этапах развития нашего языка, сопоставлялись с материалами современного литературного языка. Наряду с научно-теоретическими источниками в исследовании широко использовались лексикографические источники, такие как “Словарь древнетюркских слов”.

**Ключевые слова:** фольклор, народный эпос, языковые знания, древнее слово, устаревший пласт, заимствованные слова, древнетюркская основа, словарь.

---

### **HISTORICAL FOUNDATIONS OF THE VOCABULARY OF UZBEK FOLK EPIC**

**Akhmad RAKHIMOV,**  
Associate Professor of SamSIFL

#### **ANNOTATION**

Samples of folk art are the common intangible cultural heritage of the Turkic peoples. The linguistic study of the text of folk epics is of great importance in the study of the literary language

and its historical stages for folklore science, which analyzes both literary and linguistic research methods. In this article, from a comparative historical point of view, some lexical units used in romantic epics, such as “Xushkeldi” and “Kunduz bila Yulduz”, sung by the son of Ergash Jumanbulbul, are examined. That is, ancient Turkic words and Persian and Arabic words acquired at later stages of the development of our language were compared with the materials of the modern literary language. Along with scientific and theoretical sources, lexicographic sources, such as the Dictionary of Ancient Turkic Words, were widely used in the study.

**Key words:** folklore, folk epos, language knowledge, ancient word, obsolete layer, borrowed words, ancient Turkic basis, dictionary.

---

Ma'lumki, adabiy tilning har bir tarixiy bosqichiga xos leksik fondi asosini mazkur davr talab va ehtiyoji natijasida yuzaga keladigan funktsional-me'yoriy so'zlar tashkil qiladi. Xalq dostonlari eng qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha izchil ijodiy qayta ishlanib, ana shu davrlar tiliga moslashtirib borilgan. Shu tufayli ulardagi tarixiy lug'aviy birliklar ham adabiy til tarixining barcha bosqichlarida me'yoriy so'zlar sifatida faoliyat ko'rsatganligi bilan ajralib turadi. Bunday leksik tanlanish jarayonida: 1) bir guruh til birliklarining qayta ishlashnishi qadimgi og'zaki ijod asosida orttirilgan boy an'analarga asoslanganligi; 2) og'zaki ijodning boshqa ommaviy ijroga asoslangan janrlarga nisbatan, dostonlar badiiy kompozitsion qurilishining murakkabligi ular tilining birmuncha konservativ xususiyat kasb etishga olib kelganligi; 3) dostonlar tilining qadimdan o'z davrining eng iqtidorli va bilimdon kishilari sanalgan xalq baxshilari tomonidan izchil qayta ishlanib borilishi; 4) yozma badiiy ijodning keyingi davrlar mobaynida folklor manbalariga kuchli ta'sir etishi kabi omillar muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

Aynan ana shunday ekstralingvistik omillarning aks-sadosi o'laroq, dostonlarning tarixiy leksik qatlami: a) iste'mol darajasiga ko'ra til tarixining eng qadimgi davrlarida, shuningdek, hozirgi tilda ham o'zining funktsional-normativlik xususiyatini yo'qotmagan so'zlardan; b) iste'mol davri va me'yoriylik xususiyatiga ko'ra til tarixining qadimgi turkiy va eski o'zbek tili bosqichlarigagina daxldor bo'lgan so'zlardan iboratligi bilan xarakterlanadi. Tadqiqotlarda bunday qadimgi asosga ega bo'lgan leksik hodisa «eski so'zlar» va «eskirgan so'zlar» kabi atamalar vositasida tasniflanadi (Ўзбек тили лексикологияси, 1981: 141-142).

Ana shu tasnifdan kelib chiqqan holda, dostonlar leksikasining tarixiy ildizlarini yoritishda muhim bo'lgan qadimiy so'zlar qatlamini, dastlab ikkita katta guruhga, ya'ni eski va eskirgan so'zlarga ajratish o'rinlidir:

1. Eski so'zlar. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, dostonlar tilidan o'rin olgan qadimiy so'zlarning kattagina guruhi tilda paydo bo'lish vaqtiga ko'ra til tarixining eng qadimgi davriga borib taqalishiga qaramay, hozirgi o'zbek adabiy tilida va boshqa ko'pgina turkiy tillarda faol iste'mol etilib kelinayotganligi bilan o'zining passiv qatlamga mansub zamondoshlaridan ajralib turadi. Ular «Qadimgi turkiy so'zlar lug'ati» (DTS) bilan qiyoslanganda quyidagi xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi:

I. Dostonlarda va hozirgi o'zbek adabiy tilida bir xil shakl va mazmunga ega bo'lgan eski so'zlar:

ayg'ir (28) /ayg'ir (48); ata(65) /ota (10); ač (3) /och; arqar (54) /arqar (216); ana (43) /ona/yena (41); at (65) /ot (65) hayvon, ot ism; av (68) /ov (6); avči (69) /ovchi; balty (81) /bolta (189); baqa (251) baqa (112); baltir (81) /boldir (108); buqa (225) /buqa (251); bal (79) /bol (73);



baj (79) /boy (44); böz (118) /bo‘z - bo‘z rang; buz (118) /bo‘z (242) – mato, bo‘z - bo‘ydoq; burun (126) /burun (183) - qadim, burun – tana a‘zosi kabilar<sup>1</sup>-.

Bulardan tashqari, dostonlarda qadimgi turkiy til bilan mushtarak bo‘lgan eski so‘zlar ichida til tarixining mazkur davridayoq arab va fors-tojik tilidan o‘zlashtirilgan quyidagi lug‘aviy birliklarni ham uchratish mumkin: a) arab tilidan o‘zlashgan eski so‘zlar: maydan (399), /maydon (131); adad (41) /adad (201) – son, chek, chegara; amal (41) /amal (49); arz (58) /arz (132); asal (60) /asal (97); adab (75) /odob/adab (109); bob (76) /bob (13); manzil (339) /manzil (98); rabat (476) /rabot (210); šart (520) /shart (87); g‘aflat (485) /g‘aflat (95); b) fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar: arzu (59) /orzu; asan (59) /oson (103); karvon (289) /karvon (110); saray (488) /saroy (44); mard (339) /mard (55); zahar (639) /zahar (87); zinhar (639) /zinhor (46); jan (640) /jon (51); gavhar (195) /gavhar (88); ganj (194) /ganj (100); gul (195) /gul (104); gur (195) /go‘r (108) kabilar shular jumlasidandir.

II. Dostonlarda saqlanib qolgan ba‘zi eski so‘zlar o‘zining fonetik qiyofasi va semantik xususiyatlariga ko‘ra hozirgi o‘zbek shevalari bilan mushtaraklik kasb etadi:

| <b>Qadimgi turkiy manbalarda (DTS)</b> | <b>Dostonlarda va o‘zbek-qipchoq shevalarida</b> | <b>Hozirgi o‘zbek adabiy tilida</b> |
|--|--|-------------------------------------|
| yilan (266)                            | yilan (183)                                      | ilon                                |
| yüzük (288)                            | yuzuk (294)                                      | uzuk                                |
| yüz (288)                              | yuz (381)  | suz(moq)                            |
| yenga (256)                            | enga (47)  | yanga                               |
| qatmaq (432)                           | qatmoq (222)                                     | qorishtirmoq                        |
| čatir (142)                            | chatir (453)                                     | chodir                              |
| örle (389)                             | o‘rlamoq (317)                                   | balandlikka ko‘tarilmoq             |
| pusug‘či (398)                         | pusqinchi (110)                                  | qochoq                              |
| keriš (301)                            | kerish (399)                                     | janjal                              |
| en (173)                               | enmoq (118)                                      | pastga tushmoq                      |
| bel (93)                               | bel (394)  | dara                                |
| yipar (267)                            | yipar (302)                                      | ufor                                |
| tom (525)                              | tom (262)  | uy                                  |
| emig (175)                             | emig (308)                                       | ko‘krak                             |
| baqan (62)                             | baqan (59)                                       | ot bog‘lanadigan ustun              |

III. Dostonlarda uchraydigan ba‘zi eski so‘zlar o‘zining fonetik qiyofasiga ko‘ra qadimgi turkiy tilda o‘z muqobillariga ega bo‘lsa ham, ular semantik jihatdan farqlanadi. Nazarimizda, bunday omonimik holatning yuzaga kelishida so‘z ma’nolarining torayishi va kengayishi muhim ahamiyat kasb etgan. Ular quyidagi so‘zlar misolida ko‘zga tashlanadi:

1. Qadimgi turkiy tilda töqim/to‘qim - qoramol, buqa ma’nosini ifodalaydi (DTS, 574). Bu so‘z dostonlarda va hozirgi o‘zbek adabiy tilida, jazliq yoki egar ostiga qo‘yiladigan, odatda, kigizdan qilinadigan ot-ulov abzali ma’nosini bildiradi (O‘zTIL, II, 257).

2. Qadimgi turkiy manbalarda tön/to‘n – ko‘ylak va ustki kiyim ma’nosida qo‘llangan (DTS, 574). Bu so‘zning hozirgi adabiy tildagi ma’nosi birmuncha toraygan bo‘lib, oldi ochiq uzun milliy ustki kiyim – chopon tushunchasini anglatadi (O‘zTIL, II, 249).

Xullas, dostonlarda eski so‘zlar miqdori ancha salmoqlidir. Biroq, asosiy e’tiborni ulardagi eskirgan so‘zlar tahliliga qaratishni maqsad qilib qo‘yganligimiz tufayli, eski so‘zlardan ayrim

<sup>1</sup> Misollar «Xushkeldi» va «Qunduz bilan Yulduz» dostonlaridan (Bulbul taronaliri, III jild) olindi.

namunalar keltirish bilan chegaralandik xolos. Qayd etib o'tilgan eski so'zlar qatlami esa, dostonchilik taraqqiyotining quyidagi tarixiy lingvistik xususiyatlaridan dalolat beradi:

1. O'zbek xalq dostonlarining asosiy leksik fondini qadimgi turkiy bosqichdayoq faol iste'molda bo'lib, hozirgi kunda ham o'zining leksik-semantik va fonetik xususiyatlarini saqlagan holda adabiy til va qisman lahjalarning funktsional-normativ birliklari sifatida faoliyat ko'rsatayotgan so'zlar tashkil etadi. Bu esa, adabiy til tarixiga xos "obyektiv me'yoriy birliklar" (Берматов, 1999: 30) tilning boshqa vositalarida bo'lgani singari, xalq dostonlarida ham lisoniy voriclik asosida izchil davom ettirilganligidan dalolat beradi.

2. O'zbek xalq dostonlarida va qadimgi turkiy manbalarda umumiy fonetik strukturaga ega bo'lgan bir guruh so'zlar, hozirgi adabiy til me'yorlariga nisbatan dialektal birliklar (noadabiy qatlam) hisoblansa ham, ular adabiy tilning tarixiy shakliga xos normativlikni o'zida aks ettiradi. Chunki hozirgi ko'pchilik turkiy tillar va o'zbek shevalarida (asosan, qipchoq lahjasiga mansub shevalar) ham saqlanib qolgan bu so'zlardan ba'zilar (yilan (296), kerish (310) qayqaymoq (742) "Navoiy asarlari lug'ati"da ham qayd etilganligi, buning yaqqol dalili bo'la oladi.

2. Eskirgan so'zlar. Ma'lumki, eskirgan lug'aviy birliklar eski so'zlardan, shuningdek, zamonaviy tilning me'yoriy leksikasidan eskilik bo'yog'iga egaligi bilan farqlanadi. Bunday so'zlar zamonaviy ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlarda o'tmish davr tasavvurini berish, personajlar nutqini zamon talabiga mos ravishda individuallashtirish ehtiyoji tufayligina ishlatiladi. Biroq dostonlar tilida uchraydigan eskirgan so'zlar bunday uslubiy talablardan mustasno bo'lib, ular dostonlarning ko'p asrlik ijodiy shakllanish bosqichlarida xalq tilining eng faol me'yoriy leksikasi sifatida amalda bo'lganligi bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda: "Tarixiylik nuqtayi nazaridan dostonlarda uchraydigan eskirgan so'zlar, mazkur manbalar uchun tarixiy yoki eskirgan so'zlar emas. Chunki dostonlar yaratilib, asrlar osha kuyalanib kelinganda, bu so'zlar juda mahsuldor bo'lgan va shu sababli ular dostonlarning badiiy to'qimalariga chuqur singib ketadi" (Ишмаев, 1970: 56-63).

Shu narsa ham xarakterliki, dostonlar tiliga xos eskirgan so'zlarning kattagina qismi, eski so'zlar singari qadimgi turkiy tilga oid yozma manbalar bilan ko'pgina lingvistik mushtarakliklarga egaki, bu mushtaraklik qadimgi turkiy og'zaki ijodning yozma manbalarga ta'siridan ham dalolat beradi. Jumladan, H. Zaripov bunga alohida e'tibor bergan holda "Devonu lug'otit turk" dagi leksikaning anchasi o'zbek folklorida ko'pincha eskirgan shaklini saqlab qolgan", - deb uqtirishi ham, epik asarlarda qadimgi turkiy tilga oid so'zlarning salmoqli o'rin egallashini ko'rsatadi (Зарипов, 1976: 65-67).

Bu mulohazalarning dalili sifatida dostonlar tilidagi ana shunday so'zlarning bir qismini qadimgi turkiy yozma manbalar (DLT) va ular asosida tuzilgan lug'atlar (DTS) bilan qiyoslagan holda keltirib o'tamiz. Ular quyidagi xususiyatga egaligi bilan o'zaro farqlanadi:

1. Fonetik tarkibi va leksik-semantik xususiyatlariga ko'ra qadimgi turkiy til bilan mushtarak bo'lgan so'zlar:

bo'rk (DTS. 118); bo'rk (337) – bosh kiyim, telpak.

do'n (DTS. 60); do'n (385) - qayt(moq), qayril(moq),

jag'i (DTS.224); yog'i (453) – dushman, yov.

jaq (DTS. 337); yoq(moq) (299) surtmoq.

jügrük at (DTS. 284); yugruk ot (279) - chopqir ot.

jügrük bilga (DTS. 284); yugruk baxshi (474) – ziyrak, donishmand kishi.

jajla (DTS. 226); yayla(tmoq) (57) – yozla(tmoq).

körpa at (DTS. 318); ko'rpa ko'zi – yosh ot, yosh ko'zi.

kand (DTS.290); kand (229) - shahar.  
 kölig (DTS. 314); kulig (259) – yuk oti, yuk tashiydigan ot.  
 köşik (DTS. 319); ko‘shk (294) – ayvon, shiypon.  
 saq köñül (DTS. 485); soq qiz (312) – hushyor ko‘ngil, ziyrak, hushyor qiz.  
 sag‘ (DTS. 480); sag‘ qiz (312) - aql, farosat; aqli, hushli qiz.  
 sōq (DTS.508); so‘q(qi) (384) - urmoq, kuchli zarba bermoq.  
 sōq (DTS. 508); so‘g‘(ish) (51) - syqmoq, tiqmoq; jang.  
 sōq (DTS. 506); so‘q(tir) (222) – yasa(moq), qur(moq).  
 sin (DTS. 503); sin (36) – gavda.  
 örla (DTS. 389); o‘rla (49) – balandlikka ko‘tarilmoq.  
 terlik (DTS. 555); terlik (20) – ot abzallaridan birining nomi.  
 tōš (DTS 382); to‘sh (373) - ko‘krak, to‘sh.  
 tug‘ (DTS. 584); tug‘ (57) - bayroq.  
 tut (DTS. 591); tut (27) – zang, temir zangi.  
 tuz (DLT.I. 314); tuz (57) - to‘g‘ri, tekis.  
 čat (DTS. 141); chot (232) - urmoq, savalamoq.  
 čal (DTS. 137); chal (392) - savalamoq, qamchi chalmoq  
 qaq (DTS. 432); qaq (235) - ko‘lmak.  
 qula (DTS 464); qula (348) – za‘faron rang.

II. Qadimgi turkiy til bilan leksik-semantik jihatdan mushtarak, biroq fonetik tarkibiga ko‘ra qisman farqlanuvchi so‘zlar:

añdi (DTS. 47); angni (245) – poyladi, ta‘qib qildi.  
 alp (DTS. 36); alp (400) - bahodir, pahlavon.  
 bögur (DTS. 116); bo‘yir (88) – buyrak.  
 berim (DTS. 96); berish (96) – maosh, qarz, to‘lov.  
 inanč (DTS. 299); inoq (553) – ishonchli vakil, mansabdor.  
 kökuz (DTS. 313); ko‘kay (382) - ko‘krak.  
 buñ (DTS. 124); mung (381) – mung, g‘am.  
 tōg‘ (DTS. 570); to‘q (450) – chang, to‘zon.  
 qag‘an (DTS. 405); xoqon (277) – oliy davlat boshlig‘i.  
 qan (DTS. 417); xon (9) – xon, hukmdor.  
 kömüldürük (DTS. 314) - o‘mulduruk – ot ko‘kragiga bog‘lanadigan tasma.

Dostonlar tilining tarixiy asoslarini belgilashda muhim bo‘lgan bunday so‘zlarning aksariyat qismi etimologik jihatdan umumturkiy asosga ega bo‘lib, ular turkiy tillar tarixining milliy bosqichlarida ham faol qo‘llanilib kelingan. Masalan:

Qirqin. Qadimgi turkiy tilda: qirqin - cho‘ri, asira/qiz qirqin – asira qiz/ DTS. 446G‘. Eski o‘zbek va boshqa turkiy tillarda: qo‘rqo‘n-joriya, cho‘ri, asira /Rad.II. 748G‘. Dostonda: Qirqin qizlar bo‘lsin sening qurboning /22/.

Sin. Qadimgi turkiy tilda: sin – gavda, qomat /DTS. 503/. Turkiy tillarda: sin-gavda, qomat /Rad. IV. 628/. Dostonda: Ko‘ring sini-sinbatti /36/.

Ko‘rpa. Qadimgi turkiy tilda: körpa – yosh, navnihol /körpa öt – yangi chiqqan maysa, o‘t /DTS. 318G‘. Turkiy tillarda: körpa - qo‘zi, yangi tug‘ilgan qo‘zi /Rad.II. 1464/. Dostonlarda: Mo‘min bolam, ko‘rpa qo‘zim omon bo‘l /380/.

Qula. Qadimgi turkiy tilda: qula – za‘faron rang, sariq-qizil tus /DTS. 464/. Turkiy tillarda: qula-sariq-qizil rang /Rad. III. 967/. Dostonda: Otin chopib qula dashga /348/.

Do‘n. Qadimgi turkiy tilda: dön - aylanmoq, qaytmoq, qayrilmoq /DTS.160/. Turk, ozor tillarida: dönmaq-aylanmoq, qaytmoq, qayrilmoq, dönüm-qaytish /Bud. I. 576/. Dostonda: do‘nmoq-ot ustidagi turlicha harakat: Alvon-alvon do‘nadi. Avaz o‘tday yonadi /385/.

Ko‘shk. Qadimgi turkiy tilda: köşik – ayvon /DTS. 319/. Usmonli turk: köshk-ayvon, bog‘ shiypoli /Bud. II. 156/ Dostonda: Qunduzoy ko‘shki ustida qizlar bilan o‘ynashib o‘tiribdi /294/.

Chalmoq. Qadimgi turkiy čal - urmoq, savalamoq /DTS. 137/. Usmonli turk va ozor tillarda: chäl - urmoq, silkitmoq. /Rad. 1875, 1976/. Dostonda: Otga qamchi chaladi /392/.

Soq. Qadimgi turkiy tilda: saq- diqqatli, hushyor, ziyrak (saq tur – hushyor tur) DTS. 486/. Uyg‘ur: saq; oltoy, qirim, qozoq: sag‘-hushyor, ehtiyotkor, ziyrak, aqlli, mushohadali /Rad. IV. 249/. Dostonda: Oqqiz ... o‘zi to‘lgan sog‘ qiz uyqusi kam soq qiz /240/.

Tut. Qadimgi turkiy tilda: tut – zang /DTS. 591/. Qozoq: tut, boshqa turkiy tillarda: tat – zang, temir zangi /Rad. IIIg‘ 898. 1475/. Dostonda: Belida tut bosgan keskir xanjari /271/.

Qoq. Qadimgi turkiy qaq - ko‘lmak /DTS. 422/. Turkiy tillarda: qaq - ko‘lmak, ko‘l anhor (Rad. II. 57/. Dostonda: Alqarga suv berar cho‘llarning qoqi /231/. Mazkur so‘z hozirgi kunda Samarqand viloyati, Moybuloq jamoa xo‘jaligidagi Qoq qishlog‘ining nomi sifatida ham uchraydi.

To‘q. Qadimgi turkiy tilda: töq – chang, to‘zon /DTS. 570/. Turkiy tillarda: tög‘-chang /Rad. III. 1158/. M.Koshg‘ariy to‘q so‘zini “ot oyoqlarining tepinishidan chiqqan chang, to‘zon”, deb izohlaydi /DLT. III. 140/. Dostonda: Yo‘rtib tulpor to‘q otdi G‘450G‘.

Dostonlarda saqlanib qolgan qadimgi turkiy so‘zlar, o‘zining polisemantik xususiyatlari bilan ham tarixiy ahamiyatga ega. Xususan, quyidagi so‘zlar buning yaqqol dalili bo‘la oladi:

1. Yugruk/yuguruk. M.Koshg‘ariyning izohiga ko‘ra, bu so‘z qadimgi turkiy tilda ikki xil ma‘no ifodalashga xizmat qilgan: 1. jygyrk at – poygada o‘zib ketadigan ot; 2. jygyrk bilga - o‘g‘uzlar bilag‘on, donishmand, ziyrak va fozil kishilarni jyrpyk bilga deganlar /DLT. I. 52/. Turkiy tillarda: yugruk at va yuguruk kishi - chopqir ot, chaqqon, tez yuruvchi kishi /Bud. I. 380/. Dostonda ham so‘zning mazkur ma‘nolari saqlanib qolgan bo‘lib, ular quyidagilar misolida ko‘zga tashlanadi: 1) ot va tulpor leksemalarining epiteti sifatida chopqir ma‘nosini ifodalaydi: Yo‘lda qoldi ne bir yugruk tulporlar /267/; 2) ot va tulpor sifatlanuvchilarning tushirilishi natijasida yuguruk so‘zining o‘zi chopqir ot ma‘nosini ifoda etadi: O‘zim tengi ne bir yugruklar bor edi /267/; 3) baxshi so‘zining epiteti sifatida fozil, bilag‘on, chechan ma‘nosini anglatadi: Bir avoza bo‘ldi o‘zbek eliga, “Hech erda yo‘q bunday yugruk baxshi” deb /47. V/; 4) juft so‘zning komponenti sifatida chopqir, epchil, chaqqon kishilar obrazini umumlashtiradi: ...yaxshi-yomon, yugruk-chobon, qiz bilan juvon, ... go‘yoki odam qolmay tomoshaga chiqdi /23/.

Shuningdek, dostonlarda yugruk so‘zining qayd etilgan ma‘nolari a) otlarga nisbatan: chopqir (96), uchqur (334), churra (265) singari sinonim sifatlovchilar vositasida; b) shaxslarning aqliy faoliyatiga nisbatan: bilgir (65), chechan (214), so‘zamolG‘ donishmand kabi sinonimlar; v) jismoniy faoliyatiga nisbatan: chaqqon (57), epchil (351), chopchon (15) /chopson (506) singari sinonimlar vositasida ham ifoda etiladi. Bu sinonimlardan chopchon // chopson hozirgi o‘zbek adabiy tilida o‘z aksini topmagan bo‘lib, tarixan turkiy tillarda chopson-tez, to‘xtovsiz, bir zumda ma‘nosida qo‘llangan (Rad.III. 1927.)

Dostonlarda bu so‘zning quyidagi ma‘nolarini qayd etish mumkin: a) epchil, chaqqon ma‘nosida: ...erligimni, o‘tkirigimni, chopchon-epchilligimni ko‘rsatib qo‘yay (8); b) tez, darrov, bir zumda ma‘nosida: Avazxon biz bilan juda yaxshi, meni tashlab ketmaydi, (men uni) tez-chopchon ko‘ndirib qo‘yaman (15).

2. El so‘zi. Qadimgi turkiy manbalarda: el – yurt, mamlakat; urug‘, qabila, xalq; kelishuv, do‘stlashuv kabi ma‘nolarda qo‘llangan (DTS. 168.) Turkiy tillarda ham xuddi shunday

ma'nolarda qayd etiladi (Bud.I. 203-204). Dostonda: a) yurt, mamlakat, vatan ma'nosida: O'z elimda bozorim bor, kantim bor (229); b) xalq, urug', elat ma'nosida: Elim bor, xalqim bor, vallamatim bor (229); v) do'st ma'nosida: El ekanin, yov ekanin bilmadim (254).

3. To'sh so'zi. Qadimgi turkiy tush - ro'para, qarama-qarshi tomon; teng, bir xil G'odta kishi joq saja tush tejni - hozir senga teng kishi yo'q (DTS. 590). Turkiy tillarda ham xuddi shunday ma'noda uchraydi (Bud.I. 394-395). Alisher Navoiy asarlarida ham to'shG'tush - tomon, taraf, ro'para ma'nosini anglatadi. (NAL. 621). Dostonda: a) ro'para, qarama-qarshi tomon ma'nosida: Ot qo'ying kallar to'sh-to'shidan (558, II); b) tengdosh, bir xil yoshdagi kishi ma'nosida: Tanib bilib so'ylash tengi-to'shingi (389, II). M.Sheralievning yozishicha, "Kitobi Dada Qo'rqu" asarida ham o'z aksini topgan tej tush hozirgi turkiy tillardagi ot yasovchi - dosh affiksining eskirgan shaklidir» (Шералиев, 1975: 87-89).

Darhaqiqat, hozirgi o'zbek tilidagi tengdosh so'zining qadimgi turkiy manbalarda tush tej va anij tushi (DLT. III. 138) tarzida birgalikda hamda yakka qo'llanishi, dostonlarda mazkur so'zning teng-to'sh kabi juft so'z tarkibida uchrashi, ularning asrlar mobaynida grammatikalizatsiyalashishi jarayonidan dalolat beradi.

Bundan tashqari, dostonlarda ko'krak ma'nosida qo'llangan to'sh so'zi, dostonlar nashrida yuqorida keltirilgan to'sh so'zi bilan omograf qiyofada keltirilgan bo'lib, ular aslida o' va u fonemalarining qattiq, yumshoqligi asosida farqlangan paronimlar bo'lgan. Chunki qadimgi turkiy tilga doir manbalarda bu so'zlar tosh - ko'krak (DTS. 582) va tush (DTS. 590) tarzida farqlanadi. Dostonlarda ko'krak ma'nosidagi to'sh so'zi quyidagicha o'z aksini topadi: Yolg'izini bosib opti to'shiga (373).

III. Fonetik shakli o'xshash, biroq semantik jihatdan farqlanuvchi so'zlar.

Qadimgi turkiy manbalar va dostonlarda fonetik jihatdan mushtarak bo'lgan ba'zi so'zlar mazmuniga ko'ra farqlanadi. Bunday farqlarning yuzaga kelishida qadimgi turkiy so'zlarning keyingi asrlar mobaynida turlicha yangi ma'no kasb etishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xususan, ular quyidagi so'zlarning ma'no tarmoqlanishi misolida ko'zga tashlanadi:

Baxshi so'zi qadimgi turkiy manbalarda: baqshi 1) budda ruhoniysi; 2) bilimdon, fozil kishi; 3G' ustoz, murabbiy (DTS. 82); turkiy tillarda ularning fonetik qonuniyatlariga mos ravishda baqsho' /baqso'/ baxsho' singari variantlarda qo'llanilgan bo'lib, quyidagi ma'nolarga ega bo'lgan: 1) budda ruhoniysi; 2) kotib; 3)ustoz, murabbiy; 4)karomatchi, folbin; 5)sayyor qo'shiqchi, baxshi; 6)davolavchi-qushnoch kabilar (Rad. IV. 1445, 1446). Navoiy asarlarida baxshi-kotib, mirzo, yozuvchi ma'nosida uchraydi (NAL. 99).

Keltirilgan dalillardan ko'rinadiki, til tarixida baxshi dastlab, budda manaxi, ruhoniysi ma'nosiga ega bo'lib, ruhoniylarning turlicha faoliyati, jamiyatda tutgan o'rni mavqeidagi o'zaro o'xshashliklar so'zning semantik tadrijiga asos bo'lgan. Nazarimizda, bu o'xshashliklar quyidagilarda ko'zga tashlanadi: 1) budda ruhoniysi - o'z davrining bilimdon, tajribali va e'tiborga sazovor kishisi sifatida ustoz, murabbiy ma'nosining yuzaga kelishiga asos bo'lgan; 2) ziyoli, savodli kishilari sifatida kotib, mirzo so'zlariga sinonimik ma'no kasb etgan; 3) ruhoniylarning g'ayritabiiy kuchlar, insu-jinslar bilan muloqatga kirisha oladigan shaxs sifatida tasavvur etilishi, folbin, karomatchi va irim-sirimlar bilan davolovchi qushnoch, tabib ma'nolarida qo'llanishiga asos bo'lgan; 4) turli diniy udumlarni, duolarni ijro etish qobiliyatiga ko'ra esa, xalq qo'shiqchilari, dostonchilariga nisbatan ham qo'llagan. Islomgacha bo'lgan shamanlik va budda ruhoniylari faoliyatiga xos bu udum elementlari, qirg'iz, shuningdek, o'zbek xalqlarida doira, g'ijjak, qo'buz va tayoq yoki xivich vositasida yovuz ruhlari, insu-jinslarni haydovchi qushnochlar, baxshilar faoliyatining hozirgacha ham saqlanib qolganligi misolida ko'zga tashlanadi (Rad. IV. 1445).

Baxshilarning, qayd etilgani singari, iqtidor egalari bo'lganligini tasdiqlovchi dalillar esa, uyg'ur manbalarida uchraydigan quyidagi satrlar misolida ko'zga tashlanadi: sōzçi baqši ata – chechan baxshi ota (DTS. 82).

Ang so'zi. Qadimgi turkiy manbalarda: aŋ- qush (DTS. 46). Eski o'zbek va boshqa turkiy tillarda: aŋ – umuman, ovlanadigan qush va hayvon; usmonli turk tilida: aŋ -it bolasi va har qanday yosh hayvon (Bud. I. 103). Navoiy asarlarida ham ang – ovlanadigan hayvon va ov ma'nosida qo'llangan (NAL. 50). Dostonlarda so'zning ang/ong shakllari ham, turkiy tillarda bo'lgani kabi, umumiy ma'noda qo'llagan: Mergan otar suvsiz cho'lning ongini (281). yoki, Yuzta angning go'shtini eb ... (518. II).

Bitik so'zi. Qadimgi turkiy manbalarda bitik – kitob, yozuv, tumor kabi ma'nolarda qo'llangan (DLT. I. 365) Turkiy tillarda mazkur ma'nolardan tashqari, bitik so'zi taqdir ma'nosida ham uchraydi (Bud. I. 242). Navoiy asarlarida bitik - maktub, xat, yozuv singari ma'nolarda uchraydi (NAL. 121). Mazkur so'z dostonlarda taqdir ma'nosida uchraydi: Taqdir-bitik meni Avazga qarab burgan ekan (428).

Bulardan tashqari, dostonlarda qo'llangan quyidagi so'zlar ham qadimgi turkiy manbalardan semantik jihatdan farqlanadi: ko'mak-yordam (112), qadimgi turkiy tilda: kömak-qo'riqchi, kuzatuvchi (DTS. 326); uzuk-ingichka, xipcha (339) qadimgi turkiy tilda: üzük – uzilgan, uzuq (DTS. 630); cher-g'am, azob (10), qadimgi turkiy tilda: çer – ichki tiqin, ich qotishi (DTS. 144); cher-g'ov, to'siq (416), qadimgi turkiy tilda: çer - ro'para, qarshi tomon (DTS. 144).

#### IV. Qadimgi turkiy o'zaklar asosida yasalgan so'zlar.

Chug'ul. Qadimgi turkiy manbalarda so'zning chög'iG'G'chüg'i shakli, baqiriq, janjal, tortishuv ma'nosida qo'llangan: chög'i qöpdi – janjal ko'tardi (DTS. 152). Turkiy tillarda mazkur o'zak asosida yasalgan chög'ulG'chug'ul so'zi ayg'oqchi; g'iybatchi, shikoyatchi, alamzada singari ma'nolarni ifodalaydi (Rad. III. 2014) Navoiy asarlarida chug'ul-chaqimchi, g'iybatchi, ig'vogar ma'nosini ifoda etadi (NAL. 685). Dostonlarda ham bu so'z xuddi shunday ma'noda uchraydi: ... ko'p buzmakor, chug'ul, dilozor yomon odam edi (8).

So'qqi. Qadimgi turkiy manbalarda so'zning sōq shakli, zarb bilan urmoq, ushatmoq, maydalamoq, ezmoq ma'nolarini ifoda etgan (DTS. 508). Mazkur o'zak turkiy tillarda, xususan, tatar: sōq, usmonli turk: soq, oltoy: sōg'u, eski o'zbek: sōg' shakllarida qo'llangan va zarb bilan urmoq, yashirib qo'ymoq, o'rmoq, to'qimoq, qoqmoq, kesmoq, tishlamoq singari ma'nolarga ega bo'lgan (Bud. I. 710). Dostonlarda so'q o'zagining zarba ma'nosidagi so'qqi yasama shakli qo'llangan: Shu so'qqini ko'targan ul, Er yigitning nori bo'ldi (348). Shuningdek, dostonlarda so'q o'zagi asosida yasalgan so'g'ishmak fe'li ham mavjud bo'lib, bu so'z qadimgi turkiy manbalarda sōqiš shakliga ega bo'lgan va yuzlashmoq, to'qnashmoq, jang qilmoq ma'nolarini ifoda etgan (DTS. 509). Turkiy tillarda: so'g'ish-jang, janjal; qozoq tilida: so'g'ush kishi-jangchi, so'g'uchan-tezlovchi, janjal qo'zg'atuvchi va jangchi ma'nolarini ifoda etadi (Bud. I. 710). Dostonlarda so'g'ushmak jang qilmoq ma'nosida qo'llangan: Ko'ngli savash-so'g'ushmak (51).

Angni(moq). Qadimgi turkiy manbalarda aŋdi - ta'qib qildi, poyladi ma'nosida qo'llangan bo'lib, kontekstda quyidagicha uchraydi: ag'çi kejikni aŋdidi - ovchi kiyikni poyladi (DTS. 47). «Devoni lug'otit turk» asarida aŋdidi - hiyla qildi (DLT. I. 302). Turkiy tillarda: aŋdimaq - poylamoq (Rad. I. 146); so'zning aŋimaq shakli, eshitmoq ma'nosini ifoda etadi (Bud. I. 104). Navoiy asarlarida angdimok/angnimoq-poylamoq, eshitmoq ma'nolarida qo'llangan (NAL. 50). Dostonlarda so'zning quyidagi variantlari ta'qib qilmoq, poylamoq ma'nolarini ifoda etadi: 1. Gulshanbog'da Oftoboyning kanizlari angib turib edi (I. 59). 2. Bobo Avazxonni pishakday angnib yurib edi (245).

Misollardan ko‘rinadiki, tarixan an‘di/an‘i/an‘ni singari fonetik variantlarda qo‘llangan so‘z, semantik jihatdan ko‘rish, eshitish asosida idrok etish bilan aloqadorligiga ko‘ra qadimgi va hozirgi turkiy tillarda keng qo‘llanilib kelinayotgan an‘G‘ong-aql, idrok ma‘nosidagi o‘zak bilan aloqadordir. Dostonlarda mazkur o‘zak asosida yasalgan quyidagi kabi yasama so‘zlarni ham uchratish mumkin: Ang‘ishlamoq-toqatsizlanmoq, anglash, sezish asosida sabrsizlanish holatini obrazli tasvirlash maqsadida shaxsga nisbatan qo‘llaniladi: Yoshlar turar ang‘ishlab, Bersa deb, o‘lanni boshlab (342). Ang‘ishlamoq fe‘li boshqa bir o‘rinda otlarga nisbatan qo‘llangan holda, ularning sezish orqali yuzaga keladigan harakatini, ya‘ni gijinglash harakatini ifoda etadi: Alqarday ang‘ishlab, necha turli yo‘rg‘alashlarni boshlab (216). Shuningdek, on/ong so‘zining turlicha yasovchi qo‘shimchalar bilan shakllanishi, dostonlarda qo‘llangan angqib ketmoq - o‘zini ongli ravishda idora qilolmagan holda to‘g‘ri kelgan tomonga yugurib ketmoq /454/ hamda angqaymoq, angraymoq (328) - hushsiz qotib qolmoq, hushsizlanmoq ma‘nosidagi turlicha ruhiy holatlarni ifodalovchi lug‘aviy birliklar misolida ham ko‘zga tashlanadi.

Xullas, o‘zbek xalq dostonlarida til tarixining qadimgi turkiy bosqichidanoq me‘yoriylik kasb etgan bu kabi so‘zlar salmoqli o‘rin egallaydi. Ularning kattagina qismi tarixiy-etimologik jihatdan umumturkiy asosga ega bo‘lib, ular qadimdanoq turkiy etnik guruhlar o‘rtasida o‘zaro kuchli ta‘sirga asoslangan epik ijod jarayonidan ham dalolat beradi. Aynan ana shu epik ijod jarayoni asosida shakllangan lingvofolkloristik me‘yorlar yozuvning kashf etilishi bilan yaratila boshlagan yozma manbalarda ham izchil davom ettiriladi (Рахмонов, 1989: 143-247).

Xalq dostonlari va umuman, folklor janrlari qadimdanoq bevosita xalq tiliga asoslangan va asrlar mobaynida bu an‘ana izchil davom etib kelgan. Shuning uchun qadimiy turkiy manbalar bilan mushtarak bo‘lgan lug‘aviy birliklar o‘rtasida tarixiy-dialektal so‘zlar ham kuzatiladi. Nazarimizda, bunday so‘zlarning qadimgi turkiy yozma manbalarga kirib borish sabablarini, yozma badiiy ijodning dastlabki bosqichlarida folklor tilining kuchli ta‘sir etish darajasida taraqqiy etganligi bilan ham izohlash mumkin. Biroq, til tarixining keyingi bosqichida (XX asr boshlarida) jonli tilga xos eng sara unsurlarning qat‘iy qonuniyatlarga asoslangan yozma til vositasida tanlanishi va tilning yozuv talabiga mos ravishda tartibga solib borilishi, adabiy tilning taraqqiy etishida folklor janrlari ishtirokini birmuncha zaiflashib qolishiga olib kelgan. Natijada folklor manbalari uchun asos bo‘lib xizmat qilgan jonli so‘zlashuv tiliga xos ko‘pchilik unsurlar hozirgi adabiy tilga nisbatan lahja maqomiga ega bo‘lgan. Shuning uchun ham dostonlar leksikasidan o‘rin olgan lug‘aviy birliklar faqat tarixiylik (diaxroniya) nuqtayi nazaridagina adabiy til me‘yorlarini aks ettiradi. Zamonaviy tilga munosabati nuqtayi nazaridan bu so‘zlarning aksariyat qismi, yo iste‘mol doirasi chegaralangan, yoki passiv lug‘aviy birliklar sifatida baholanadi.

### **Iqtiboslar/Сноски/References**

1. Бегматов Э., Маматов А. Адабий норма назарияси, III қисм. – Тошкент, 1999.
2. Зарифов Қ.Т. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар //Пўлкан шоир... – Тошкент, 1976, 65-67 бетлар.
3. Ишаев А. Халқ дostonлари лексикасига оид кузатишлар //ЎТА, 1970, № 5, 56-63-бетлар.
4. Рахмонов Н. «Култегин» ёдномасининг поэтикаси// Ўлмас обидалар – Тошкент, 1989, 143-247- бетлар.
5. Шералиев М.Ш. О несостоятельных этимологиях некоторых слов и аффиксов тюркских языков // СТ, 1975, №1, С. 87-89.
6. Эргаш Жуманбулбул ўғли. Булбул тароналари. 3-жилд. «Хушкелди», «Кундуз билан Юлдуз». – Тошкент, 1972.
7. Ўзбек тили лексикологияси. – Тошкент, 1981.

## FOLKLOR NÜMUNƏLƏRİ ƏSASINDA LİRİK ƏSƏRLƏRİN İFADƏLİ OXUSUNUN TƏŞKİLİ

**Simuzər ƏLİYEVƏ,**

Azərbaycan dövlət pedaqoji universiteti,  
Filologiya üzrə Fəlsəfə doktoru, baş müəllim,  
E-mail: simuzeraliyeva1957@mail.ru

### ANNOTASIYA

Cəmiyyətimizin, gənclərimizin inkişafında nitq, yazı və oxu əsas meyarlardan sayılır. Uç göstəricinin reallaşması cəmiyyətin işıqlı gələcəyə olan yoludur. Hər bir vətəndaş bu xüsusiyyətləri özündə aşılamalıdır. Yerindən, dilindən asılı olmayaraq nitq səlis, anamlı, sadə və ifadəli olmalıdır. Bu xüsusiyyətlər istənilən anda, istənilən yerdə və dildə insanın cəmiyyətdə tutduğu mövqeni açıqlayır. Bu baxımdan ifadəli nitq, ifadəli oxu tərzı böyük əhəmiyyət kəsb edir. Cəmiyyətdə bu xarakterlərə malik vətəndaş yetirmək müəllimlərin öndə olan vəzifələrindən biridir. Bildiyimiz kimi, dünyagörüşünün artması, hərtərəfli inkişaf etməsi dil və ədəbiyyat dərslərinin əsas meyarlarından biridir. Ədəbiyyat fənninin tədrisində də bu amil əsas götürülür.

Səviyyəli nitqin yaranmasında ifadəli oxunu rolu böyükdür. İfade li oxu vasitəsilə ifadəli mövzudan, növündən asılı olmayaraq elə ustalıqla çıxış etməlidir ki, dinləyici və tamaşaçı məzmununda bəhs edilən mühitə yaşasın. Bunun üçündə bədii qiraətin rolu böyükdür. Bədii əsərin ifadəli oxusunda səs və nitq bölməsində nitq texnikası vərdişlərinin (tələffüs, səs, diksiya) tərbiyəsi, səsin məlahətliyi, mütəhər-rikliyi, qücu, ucalıq, tembr, orfoepik normalara düzgün riayət etmək xüsusilə vacibdir. Bundan əlavə məntiqi oxu vərdişlərinin aşılmasında məntiqi ifadəlilik vasitələri; məntiqi vurğu məntiqi, fasilə, məntiqi melodiya, mətnaltı məna, eləcə də ifa zamanı auditoriya ilə bədii əsərin təqdimində nitqin təsirliliyini, emosional – obrazlı ifasını da artırır.

**Acar sözlər:** ifadəli oxu, vərdiş, intonasiya, asılı olmaq, məntiqi, ustalıq, məlahətlik, nitq, məna, təqdimat.

---

## ОРГАНИЗАЦИЯ ЭКСПРЕССИВНОГО ЧТЕНИЯ ЛИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ НА ОБРАЗЦАХ ФОЛЬКЛОРА

**Симузер АЛИЕВА,**

Азербайджанский Государственный  
Педагогический Университет,  
доктор филологических наук, старший преподаватель,  
E-mail: simuzeraliyeva1957@mail.ru

### АННОТАЦИЯ

Речь, письменность и чтение являются основными критериями в развитии нашего общества и молодежи. Реализация трех индикаторов – это путь к светлому будущему для общества. Каждый гражданин должен воспитывать в себе эти качества. Каждый гражданин должен воспитывать в себе эти качества. Независимо от места и языка речь должна быть беглой, осмысленной, простой и выразительной. Эти характеры раскрывают положение человека в обществе в любое время, в любом месте и на любом языке. С этой точки зрения выразительная речь и стиль чтения имеют большое значение. Воспитание граждан с такими характерами в обществе является одной из основных обязанностей педагогов. Как известно, одним из основных критериев изучения языка и литературы является расширение мировоззрения и всестороннее развитие. Этот фактор также берется за основу при изучении



